

# Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

## HALIMA HAM O'TIB KETDI, BILMADIK...

Hayot minglab-millionlab tasodiflarning bir nuqtada bizga mutlaq noayon qonuniyatlar asosidagi kesishuvlari jamlanmasidan iboratdek. Balki shu sabablidir, kechmish voqealariga nisbatan "agar" istilohini qo'llash nojoizday tuyuladi.

Ammo...

(Davomi 4-sahifada.)



### YODI HAMISHA YODDA

## BOTIR ZOKIROV HAYKALI OCHILDI

San'atkor xotirasini e'zozlash, ijodiy merosini o'rganish bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda. Xususan, Prezident qarori qabul qilinib, 2021-yilda Botir Zokirovning 85 yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi. Ulug' hofiz nomidagi milliy mukofot ta'sis etildi. U haqda ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratildi. Yaqinda Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan atoqli san'atkorlar ishtirokida katta shodiyona sifatida o'tkazildi.

Botir Zokirov tahsil olgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan ko'chaga uning nomi berildi. Ushbu konservatoriya huzurida Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san'ati instituti barpo etildi. Haykal ham aynan ushbu majmua qad rostladi.

– Bu haykal Botir Zokirov xotirasiga o'rnatilgan ramziy bir timsoldir. Ayni paytda Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'atni ravnaq topirish yo'lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug' ijodkorga eng munosib yodgorlik bo'ladi, – dedi davlat rahbari.

Ma'lumot uchun, Botir Zokirov 1936-yilda san'atkorlar oilasida tug'ilib, voyaga yetgan. 29 yoshida O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan. 2000-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" va 2021-yilda "Elyurt hurmati" ordenlari bilan mukofotlangan.

Botir Zokirov 49 yil umr ko'rgan. Lekin shu yillar davomida o'zidan rang-barang va boy ijodiy meros qoldirgan. Uning sehri ovoz yur-timzdagi har bir xonadonga kirib borib, xalq qalbidan, san'atning ol-

tin fondidan joy olgan. Dunyoning madaniyat poytaxtlarida o'zbek san'atini zo'r muvaffaqiyat bilan namoyish etgan.

Xonanda 1955-yilda, ayni kuchga to'lgan paytida og'ir dardga yo'liqadi. Bir necha marta jarrohlik amaliyotlarini boshidan o'tkazadi. Shifokorlar unga qo'shiq aytishni taqiqlab qo'yadi. Lekin shu ahvolda ham ijoddan, kuylashdan to'xtamaydi.

Botir Zokirov umr bo'yi yangilikka intilib yashadi. Sharq folklori va zamonaviy estrada san'atini uyg'unlashtirib, "Myuzik xoll" ijodiy jamoasini tashkil etgan, xonanda va kompozitor sifatida ko'plab iste'dodli yoshlarga ustozlik qilgan. Respublikada xizmat ko'rsatgan "Yalla" ansambllarini tashkil topishida Botir Zokirovning xizmati beqiyos.

Tadbirda Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san'at tarixida butun bir davrni tashkil etishi ta'kidlandi. Uning boy merosini chuqur o'rganish va xalqqa yetkazish ishlarini davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga alohida qaror tayyorlash topshirildi. Unda Toshkent shahrida san'atkorning memorial muzeyini barpo etish, estrada san'ati bo'yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko'rik-tanlov va talabalar uchun davlat stipendiyasi joriy etish, badiiy film yaratish, Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ko'zda tutiladi.

Marosimda Botir Zokirovning izdoshlari, san'at va madaniyat namoyandalari so'zga chiqdi.

(Davomi 2-sahifada.)

### KECHA VA BUGUN



## JADIDLARNING MILLIY QO'SHIN HAQIDAGI ORZUSI

So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy armiyani isloh qilish, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda armiya va xalq birligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimini faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan mustahkam irodali yoshlar bilan to'ldirish imkonini bermoqda.

Ayni paytda mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligiga bog'liq bo'lgan ko'plab dolzarb masalalar mavjud. Binobarin, Prezidentimizning 2018-yil 4-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar hamda 2024-yil 14-yanvardagi Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan

qilingan ishlar hamda jadid bobolarimizning harbiy sohaga oid qarashlarini o'rganish bo'yicha ishchi guruh tashkil qilingan. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar orqali Vatanimiz istiqolli va xalqimiz ozodligi yo'lida mardona kurash olib borgan va mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan harbiy jadidlar faoliyatini chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish nazarda tutilgan. Bunday fidoyi, vatanparvar bobolarimizning sharafli hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish orqali bugungi yoshlar qalbidan ular bilan faxrlanish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada kuchaytirish mumkin. Qolaversa, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan imzolangan qo'shma qarorga asosan, o'tgan asr boshlarida kechgan milliy ozodlik kurashlari davomida yurt mudofaasini ta'minlash borasida

(Davomi 3-sahifada.)

### QUTLOV



## "OLTIN QALAM" MUBORAK!

Kuni kecha "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida "Oltin qalam" XVIII Milliy mukofotining tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tanlov televideniye, radio, bosma va internet nashrlari, chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali va boshqa bir qancha rag'batlantiruvchi nominatsiyalar bo'yicha o'tkazildi. Marosimda bosma nashrlar yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa "Jadid" gazetasining "Adabiyot va san'at" bo'limi mudiri Shoyim Bo'tayev munosib deb topildi.

Taniqli yozuvchi Shoyim Bo'tayev Xo'jand Davlat pedagogika institutining tarix-filologiya

fakultetini tugatgan. Uning mehnat faoliyati "Guliston" jurnalidan boshlangan bo'lib, keyinchalik gazeta, jurnal, nashriyot, radio va televideniye turli lavozimlarda faoliyat yuritib, o'zbek milliy madaniyati, adabiyoti va san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdi. Adibning "Sirli yulduzlar", "Shamol o'yini", "Kunbotardagi bog" singari qissalari hamda "Qo'rg'onlangan oy", "Shox", "Utashan. Yettinchil tong" kabi romanlari adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan.

Hamkasbimizni ushbu mukofot bilan chin dildan qutlab, unga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, kelgusi ijodiy ishlariga yuksak parvozlar tilaymiz.

TAHRIRIYAT

### XOTIRA VA QADR

## MA'NAVIY TARBIYA NAMUNASI

Atoqli adib Chingiz Aytmatov o'z davrida iste'molga kiritgan "manqurt" obrazi o'tmishini unutmishga mahkum qilingan sovet mustamlaka xalqlarining ayrim toifasiga ishora bo'lib, zamonning eng mudhish fojiasi sifatida talqin etilgan edi. O'zining Jo'lamon, otasi Do'nanboy, aymog'i naymanligini unutmagan qahramonda qandoq qilib el-u yurt mehri, Vatanga sadoqat hissi bo'lishi mumkin? U bor-yo'g'i xo'jayini kabi boshiga kokil qo'yishni-yu, to'yib ovqat yeyishni orzulaydi, xolos. Unga asli kimligini tanitish qayg'usida zor-u zor qaqshayotgan onaizor ham batamom begona. Vatanni onaga qiyoslaymiz. Shuning uchun ona Vatan deymiz. O'z haqqoniy tarixini teran anglagan, bobolarini tanigan, ular bilan faxrlangan avlodgina Vatanga chinakam qalqon bo'la oladi. Buning uchun xalqchil millatsevarlik g'oyasi, ta'sirchan vatanparvarlik tarbiyasi zarur. Quruq pand-nasihatdan ko'ra, amaliy ibrat yoshlar dunyoqarashini tezroq o'zgartirishga qodirligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Vatan uchun o'z jonini qurbon qilgan ota-bobolar, urush yillarida sadoqat va matonat timsoliga aylangan onalar xotirasiga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom amaliy tarbiyaning eng ta'sirchan vositasidir. Yangi O'zbekiston muhitida mana shu jihatlarga jiddiy e'tibor qaratilyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr-dagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini

munosib nishonlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mamlakatimiz poytaxti – Toshkentda yangi tarixiy ma'lumotlar va har jihatdan puxta ishlangan loyihalar asosida "Shonsharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlari tarixiy-badiiy eksponatlarini o'z ichiga olgan qariyb 15 gektar maydonda muhtasham "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi barpo etildi. 2020-yil 9-may – Xoti-



ra va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligi munosabati bilan G'alaba bog'ining tantanali ochilish marosimida davlatimiz Rahbarining "Bu betakror majmua qahramon xalqimizga munosib bo'lib, ham me'moriy jihatdan, ham tarixiy-ma'naviy jihatdan g'oyat noyob va mahobatli obida bo'lib qad rostladi", degan so'zlari xotira madaniyatining eng o'zak masalasiga e'tibor-

ning ilk debochasi edi. Prezident o'tmishda kechgan har qanday hodisani xalqimiz hayoti bilan bog'liq jihatlarga hurmat bilan yondashish kerakligini uqtirdi. Xalqqa bunday ehtirom xalq roziligining tarkibiy qismi sifatida odamlar qalbidan bugungi tinch-osoyshta kunlarga shukronalik tuyg'ularini jo'sh urdiradi.

(Davomi 2-sahifada.)



# BOTIR ZOKIROV HAYKALI OCHIDI

Boshlanishi 1-sahifada.



**Farrux ZOKIROV,**  
O'zbekiston xalq artisti:

– Ochig'i, men bugun juda hayajondaman. Ayni paytda Zokirovlar sulolasining bir vakili sifatida yuragimda cheksiz faxr tuyg'usini his qilib turibman. Davlatimiz rahbarining bizning oilamiz a'zolari haqida, jumladan, "Yalla" ansambli haqida bildirgan samimiy fikrlari meni nihoyatda to'liqlantirdi.

Bugun yurtimizda inson qadrini ulug'lash – muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan odilona siyosatning ustuvor yo'nalishi ekaniga har birimiz guvoh bo'lmoqdamiz. Buni o'zbek san'atida o'chmas iz qoldirgan akam Botir Zokirovning e'tibor misolida ham ko'rib turib-

motirasiga ko'rsatilayotgan yuksak qadriyatini ko'rib turibman.


Prezidentimizning tarixiy qarori asosida Botir Zokirovning 85 yillik yubileyi mamlakatimizda keng nishonlandi. Poytaxtimizdagi mana shu fayzli ko'chaga Botir Zokirov nomi berildi. U kishining nomi bilan ataluvchi estrada san'ati instituti tashkil qilindi, milliy mukofot ta'sis etildi. Respublika ko'rik-tanlovlari o'tkazilmoqda. Rahmatli Botir akam haqida turli yo'nalishlarda yangi-yangi asarlar yaratilmoqda.

Mana, bugun ochilayotgan muhtasham haykal go'zal Toshkentimizning chiroyiga yangi bir chiroy qo'shmoqda, desak, buyam haqiqat bo'ladi.

Albatta, bularning barchasini biz muhtaram Prezidentimizning milliy san'atimiz va madaniyatimizga, yoshlarimizga, butun xalqimizga ko'rsatayotgan ulkan hurmati va g'amxo'rligi ifodasi deb bilamiz.

Bugungi marosimda u kishi O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning o'lmas merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilishga qaratilgan yana bir yangi qaror tayyorlanishini ma'lum qildilar. Biz hammamiz, Botir Zokirov muzeyini barpo etish, u kishining nomida xalqaro tanlov tashkil qilish, stipendiya joriy etish, badiiy film yaratish, Botir Zokirov nomidagi jamg'arma va orkestr faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bildirgan tashabbuslarni cheksiz quvonch va hayajon bilan qabul qildik.

Bularning barchasi uchun Zokirovlar sulolasi nomidan, akam Botir Zokirovning yaqinlari, shogird va muxlislari, butun san'atsevar xalqimiz nomidan Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildirishni o'zining burchim deb bilaman.



**Andrey SLONIM,**  
teatr rejissori,  
O'zbekiston san'at arbobi:

– Shuni aytishni istardimki, qisqa vaqt ichida mamlakatimizda san'at va madaniyatni rivojlantirish borasida muhim va ulkan ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev buyuk shaxslarning xizmatlarini munosib baholash, ularning xotiralari abadiylashtirish va qadrlash masalalariga alohida ahamiyat qaratmoqda. Buyuk Botir Zokirovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan mazkur haykal va mana shu fayzli tadbir fikrimizning yorqin isbotidir.

Botir Zokirovning zamondoshi sifatida uning olamshumul muvaffaqiyatlariga guvoh bo'lish, birgalikda konsertlarda, turli tadbirlarda, dekadalarda qatnashish baxti nasib etganidan o'zimni juda baxtlior his etaman. Bu inson yuksak madaniyat sohibi, favqulodda shaxs, buyuk san'atkor edi. U yaratgan qo'shiqlar, hech shubhasiz, o'zbek san'atining oltin fondidan munosib o'rin oldi va uning uzviy bir qismiga aylandi.

Qirq yildan buyon Botir Zokirov oramizda yo'q. Lekin uning betimsol ovozi hamon ko'ngillarimizga taskin beradi. Uning san'atiga, shaxsiyatiga bo'lgan ehtiromimiz, mehrimiz qalblarimizda bugungacha yashab kelyapti. Shuning o'zi chin iste'dodning umri boqiylikiga yorqin dalildir.

Yana qirq yil o'tadi, yuz yil o'tadi, ammo Botir Zokirovning ko'p qirrali san'ati qalbimizda yashaydi va bizni quvonitirib, ruhlanitiradi. Hozir u chizgan suratlar, yozgan she'rilar va hikoyalari yodimga tushmoqda. U bir paytlar "Baxt qayerdanday?" deb kuylagan edi. Ayni damda xayolimga shunday fikr kelyapti: uning baxti mana shu joyda, mana shu Vatanda! Uning qo'shiqlari qayerda yangrayotgan bo'lsa, uning baxti ana o'sha yerda.



**Sevaraxon TO'LANOVA,**  
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti talabasi:

– Men Prezidentimiz qarori bilan tashkil etilgan buyuk san'atkor Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining talabasiman. O'zim Andijon viloyatining Xonobod shahridanman.

Men maktabda o'qib yurgan paytlarimda Botir Zokirovning qo'shiqlarini tinglab, ularni o'zimcha aytib yurardim. "Katta bo'lsam, albat, qo'shiqchi bo'laman", deb niyat qildim.

Bugun Prezidentimizning biz yoshlarga berayotgan ulkan e'tibori tufayli maqsadimga erishib, Milliy estrada san'ati institutida tahsil olayotganimdan baxtlioraman. O'zbek san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan Botir Zokirovdek buyuk insonlarning munosib izdoshlari bo'lamiz, deb biz yoshlar hamisha izlanishdamiz. Men yaqinda bo'lib o'tgan Botir Zokirov nomidagi 4-Respublika tanlovida 1-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldim.

Bu yutuqni men avvalo institutimizda, yurtimizda biz uchun yaratilgan sharoitlarning, ustozlarimiz mehnatlarining natijasi, deb bilaman.

Bugun poytaxtimizda muhtaram Prezidentimiz ishtirokida Botir Zokirovga bag'ishlangan yodgorlikning ochilish marosimi o'tkazilgan va unda men ham ishtirok etganim hayotimdagi eng unutilmas damlardan biri sifatida saqlanib qoladi.



**Avaz MANSUROV,**  
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rektori:

– O'zbek madaniyati va san'ati tarixidagi bugungi ulkan, unutilmas voqeada ishtirok etish baxtiga muyassar bo'lganimdan men ham nihoyatda baxtlioraman.

Muhtaram Prezidentimiz bugungi marosimda so'zlagan nutqida benazir iste'dod egasi bo'lgan Botir Zokirovning milliy estrada san'atimizga asos solib, bu borada mo'jizalar yaratgani, uning chinakam fidoyiligi haqida hammamizning yuragimizdagi fikrlarni aytib o'tdilar. U kishi yoshlarimizga, ularning iste'dodi va ke-lajagiga yuksak ishonch bildirdilar.

Darhaqiqat, bugun el-yurtimiz orasidan Botir Zokirovdek ulug' ijodkorlarimizning munosib izdoshlari yetishib chiqmoqda. Talantli o'g'il-qizlarimiz har bir sohada, jahonning eng katta sahnalarida o'zlarining qobiliyat va mahoratini yorqin namoyan etmoqdalar.

Bularning barchasini biz mamlakatimizda bevosita Prezidentimiz rahbarligi ostida amalga oshirilayotgan islohotlarning, yoshlarimizga yaratib berilayotgan beqiyos sharoit va imkoniyatlarning samarasi, deb bilamiz.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti – aynan estrada ijrochiligiga ixtisoslashtirilgan dunyodagi yagona institut, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Bugun institutimizda o'qish, izlanish, ijodiy sa-lohiyatni ro'yobga chiqarish uchun har tomonlama munosib sharoitlar yaratilgan. Talabalar ham, professor-o'qituvchilarimiz ham o'z oldilariga yuksak maqsadlar qo'yib yashamoqdalar.

Institutimiz faoliyati boshlanganiga hali 2 yil ham to'lmadi. Ammo hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlardan bizga ko'plab talabalar kelmoqda. Ayni paytda, talaba yoshlari bizda ta'lim olishini istayotgan, institutimizdan andoza olishga intilayotgan mamlakatlardan soni oshib borayotgani barchamizga katta g'urur bag'ishlaydi.


**Shuhrat AZIZOV**

## MA'NAVIY TARBIYA NAMUNASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Majmua xalqimizning sevimli ziyoratgoh maskaniga aylandi. Hozir bu yerga yurt-doshlarimiz, chet ellik sayyohlar kelishadi. Shu kungacha ular soni 2 million 200 ming nafardan oshdi. Olimlarning urush mavzusida to'xtab qolayotgan ilmiy izlanishlari "G'alaba bog'i" tufayli jonlanib qoldi. Ellikka yaqin monografiya, kitob-albom, xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy anjuman materiallari, hujjat to'plamlari yaratildi. Davr tarixiga tegishli yuzlab tarixiy fakt va dalillar ilmiy muomalaga kiritildi. Ikki million nafarga yaqin urush qatnashchisining ro'yxati tuzilib, bedarak ketgan yuzlab jangchilar taqdiriga oid ma'lumotlar to'plandi. G'alaba bog'i yurt-doshlarimiz, yoshlar uchun o'ziga xos vatanparvarlik, shukrona maktabi bo'lib qoldi. Bu yerda "Uch avlod uchrashuvlari", xotira tadbirlari, tarix darslari tashkil etilmoqda. Ikkinchi jahon urushida ko'pmillatli O'zbekiston xalqi ko'rsatgan jasorat va matonat tafsilotlari bilan yaqindan tanishishni istaganlar soni tobora ko'payib borayotgani davlatimiz rahbarining tashabbusi juda uzoqni ko'zlab hayotga tatbiq etilgan g'oya ekanligini yana bir bor isbotladi.

2021-yili "O'zbekiston" nashriyotida nashr qilingan "O'zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida" deb nomlangan muhtasham kitob-albomda bu urush Yangi O'zbekiston tarixining ajralmas qismi ekanini aniq fakt-raqamlar orqali aks etgan. Kitob-albom Prezidentimizning "Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy g'alabani ta'minlashda ko'pmillatli O'zbekiston xalqining qo'shgan hisssasi beqiyosdir. Xalqimiz jang maydonlarida va front ortida ko'rsatgan yuksak jasorat va matonatni tarix sahifalariga muhrflash, xotirlash va qadrlash maqsadida G'alaba bog'i deb atalgan ushbu betakror va muhtasham majmuani bunyod etdik. Bugungi tinch va ozod, farovon hayotga erishish yo'lida fidoyi ota-bobolarimiz namoyon etgan mardlik va jasoratni el-yurtimiz hech qachon unutmaydi. Ishonaman-ki, bu ulug'vor majmua unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizni hamisha Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalriga sadoqat ruhida kamol toptirishda beqiyos ma'naviy tarbiya maktabi bo'lib qoladi", degan xalqimizning urush yillarida ko'rsatgan jasorat



at va matonatni anglatuvchi so'zlari bilan boshlanadi.

2018-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbuslari bilan Vatanimiz mustaqilligini yovuz kuchlardan himoya qilishda fidoyilik ko'rsatgan mard va dovyurak o'g'lonlarimizning jasoratlari haqida hikoya qilguvchi "Mard o'g'lonlar nomi barhayot" nomli xotira kitobi chop etilgan edi. Mazkur kitob xalqimizning botir, jasur va fidoyi farzandlari xotirasiga hurmat hamda ehtirom namunasini sifatida dunyoga kelgandi.

Janubiy operativ qo'mondonligining xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassisi Hanifa Xadjayeva shunday deydi: "Bu kitob yosh avlodga O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, tinchlik va osoyishtaligini asrashga barcha birdek mas'ul ekanligini yanada teranroq anglatish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Men faoliyat yuritayotgan Surxondaryo viloyati aholisi, ayniqsa, bu asarni g'oyat qadrlaydi. Har gal harbiy qism va mahallalarda jamoatchilik kengashi uchrashuvlarini o'tkazsak, albat-

ta, nomi shiorga aylangan "Mard o'g'lonlar nomi barhayot" kitobi yodga olinadi".

2023-yili Shavkat Mirziyoyev Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyida mustaqillik yillarida yurtimiz daxtsizligini ta'minlash yo'lida jonini qurbon qilgan qahramon vatandoshlarimizning oila a'zolari bilan samimiy muloqot qilib, har qanday inson qalbinu larzaga soluvchi shunday so'zlarni aytgan edi: "El-yurt uchun jonini fido qilgan o'g'lonlarimizni halok bo'lgan, deyishga til bormaydi. Ular oilasi uchun, Vatanimiz uchun hamisha barhayot!"

Bunday fidoyi o'g'lonlar xotirasini abadiylashtirish, ularning oila a'zolariga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e'tiborida. Prezidentimiz 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabani 79 yilligi munosabati bilan G'alaba bog'i yodgorlik majmuasiga tashrif buyurganlarida bunday fidoyi insonlarning xotirasini e'zozlash borasida amalga oshirilayotgan ibratli ish-larga ham alohida e'tibor qaratdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, mustaqillik yillarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibida xizmat

qilgan 600 nafar askar va zobitlar yurtimiz tinchligini ta'minlashdek sharafli burchini bajarish yo'lida halok bo'lishgan. Mamlakatimiz Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning tashabbusiga asosan G'alaba bog'iga tushadigan bunday majmualarni viloyat markazlarida ham bunyod etish rejalashtirilgan.

Bunday mard va jasur insonlarning oila a'zolari, farzandlari, ota-onasi, yaqinlari davlatimiz rahbarining ushbu tashabbusidan juda mamnun. Prezidentimizning 2023-yil 13-mart kuni qabul qilingan tarixiy Farmonida ona Vatanimiz himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida jonidan kechgan harbiylarning xotirasini e'zozlash, ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar, imtiyoz va kafolatlar belgilab berildi.

Jumladan, halok bo'lgan harbiy xizmatchining oila a'zolariga marhumning oxirgi egallangan davlatimiz bo'yicha maoshi va harbiy unvoni maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida beryo'la nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Halok bo'lganda to'lanadigan sug'urta summasi esa bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida tayinlandi. Shuningdek, bunday toifadagi kishilar uchun yana qat'iy to'lovlar yaratilgani ko'pchilikni mamnun qildi.

Albatta, oilaning ustunidan ayrilgan insonlarning musibatini tasavvur qilish qiyin emas. Endilikda boshiga shunday ko'rgilich tushgan oilalarga g'amxo'rlik qilish, tegishli idoralardan tomonidan ularni o'taliqqa olish tartibi belgilangani ham xalqimizga xos insoniylik va bag'rikenglikning yaqqol namunasini bo'ldi, deyish mumkin.

Bunday xayrli chora-tadbirlar zamirida inson qadrini ulug'lash tamoyili, xalqni rozi qilish siyosati mujassamdir. Chunki bu dunyoda insondan ko'ra azizroq yaratq, uning xotirasidan muqaddas tushunchaning o'zi yo'q.

**Iqbol MIRZO,**  
Shoyim BO'TAYEV

## KECHKI YO'QLAMA

*(2000-yil mamlakatimizning janubiy sarhadlariga suqilib kirishga harakat qilgan buzg'unchilarga qarshi kechgan janglarda millatning mard yigitlari Mustaqillik himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan. Baxmal tumanidagi harbiy qismning "Kechki yo'qlama" daftarida ana shu o'g'lonlar nomi hanzur qayd etiladi).*

Bu yurtning har qarich yeri muqaddas, Tillo tosh bosolmas tuproqlariga. Tog'larning qa'ridan keladi bir sas Jo'r bo'lib yurakning titroqlariga.

Shon desang Vatanning shonini ko'tar, Jon desang, Vatanga uni tortiq et. Har kimga munosib bir qismat bitar, Uni sharaf bilan shunday yashab ket.

Sherga shikor berar sherligi uchun, Elga hikmat berar biriligi uchun. Yigitga Vatanni asramoq taqdir, Qo'rg'onligi uchun, erligi uchun!

Quloqda qo'rg'oshin misol o'gitlar, Dilda qasam, taqdir – aziz boshida. "Tizzasi yo'q" mardlar, turkiy yigitlar Tik turib uzildi Vatani qoshida.

Bag'ring alvon bo'ldi, ko'ksing-chi oppoq, Noming dildan o'chmas bir sha'n bo'libdi. Sharaf qonig bilan poklangan tuproq Bugun shunday ulug' Vatani bo'libdi.

Bu Vatani bitmagay to tuz bor ekan, Ishqi bilan dilni cho'g'lab o'tamiz. To Vatani bor ekan, to so'z bor ekan, Sizni butun umr yo'qlab o'tamiz:

*"Katta leytenant Mahmudjon Jalilov!"*  
– Vatani himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!

*"Leytenant Boburjon G'aniyev!"*  
– Vatani himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!

*"Leytenant Sayyor Sadinov!"*  
– Vatani himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!

*"Katta serjant Elomon Otajonov!"*  
– Vatani himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!

*"Serjant Qahramonjon Madalimov!"*  
– Vatani himoyasi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan!..

**Islomjon QO'CHQOROV**



# JADIDLARNING MILLIY QO'SHIN HAQIDAGI ORZUSI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ishchi guruh qisqa fursatda harbiy sohamiz tarixini o'rganishda muhim hujjatlarni izlab topdiki, bu manbalar kelgusida ushbu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borishga zamin yaratadi. Ularning ayrimlari xususida quyida mulohaza yuritiladi.

Shubhasiz, avvalboshdan jadid taraqqiyparvarlari yurtimizda milliy armiya barpo etish orzusi bilan yashagan edi. 1917-yilgi siyosiy bo'hronlarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy shu maqsadda juda katta sa'y-harakatlarni amalga oshirganlar. Xususan, Turkiston muxtoriyati e'lon qilgach, o'lkamizda milliy armiya safiga yozilish tashviqu-ti boshlandi. 1918-yil 17-yanvar kuni Toshkentda "Ishchilar dunyosi" jurnalinin 2-sonida G'ulom Zafariy imzosi bilan chop etilgan "Quvvatimiz askardir" maqolasida shunday so'zlar bitilgan: "Himmatparvar turkistonlilar! Biz turkistonlik turk bolalari Muxtoriyat e'lon etdik. Endi Muxtoriyatimiz barqaror o'sun desak bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlikdir. Quvvatimiz bo'lgan askarlikka jon dil ila boqub, qalbimizni unga tuhfa etaylik. Aslo unutmaylik. Och, suvsiz tursak ham boshqa bir narsaga qaramasdan faqat qahramon askarimizni tushunaylik! Zero, bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir. Buning ila buyuk bo'ladi. Buning ila shon beradir, buning ila hayot bo'ladi, buning ila muzaffariyatga noil o'lub jahonni titratadi. Buning ila ajdod atomiz bo'lgan fothilarning, qahramonlarning ruhlarini shod etaylik, moziyimizni xotira keltirib istiqbolimizni ta'yin etaylik", degan da'vat bilan boshlaydi. "...Uyimizda kiyim-kechak, uy asboblarimizni orttirmoqqa harakat etmay quvvatimizni orttirmoqqa harakat etaylik. Ipak, qimosh va boshqa narsalarga iqtisod etaylik, sandiqlarni, xaltalarni, yuklarni to'ldirmakka g'ayrat etmay, quvvatimizni to'ldirmakka g'ayrat etaylik. Qimmatlik narsalarga, ya'ni olmosga, javohirga, zumradga, marjonga, yoputga va kumush asboblarga oltilimimizni berub sandiqlarga hibbs etsak bularning na davlatga, na millatga, na Vatanga, na askarga foydasi bo'lmas. Sandiqlarda shundoqcha qolar. Bal-kida egasiga-da foyda bo'lmas".

Shu tariqa maqola muallifi yoshlarni askarlikka, boylarni esa unga homiylik qilishga da'vat qiladi.

"Ishchilar dunyosi"ning 1918-yil 1-fevral 3-sonida "Milliy askar" rukni ostida "Hozirda Xo'qand shahrida rasmiy suratda qo'lga yarog' tutgan milliy askar va militsiyamiz bir ming chamasi bo'lgan edi. 9-yanvar kuni mullo Abdurazzoqboyning bog'ida shularning "ko'ruv"i (man-yovr) yasaldi. Bu "ko'ruv"ga Muxtoriyatlik Turkistonning muvaqqat hukumati a'zolaridan Islom afandi Shoahmedov bilan Ubaydulla afandi Xo'jayev tashrif buyurgan edilar. Bu yigitlarimiz tamom yig'ilib yetganidan so'ng Ubaydulla Xo'jayev ularga xitoban: "Sizlar Muxtoriyatlik Turkistonning birinchi qahramon o'g'ullari bo'ldingiz. Bu xizmatlaringdan faxr qilsalaringiz arziydu. Chunki suyuqlik Vatanning himoyasiga birinchi marta o'laroq sizlar o'z ixtiyoringiz bilan askar bo'ldingiz! Turkiston mamlakatining kelajakda baxt va saodatga erishmogi sizlardan boshlanasa kerak. Sizlarni Muxtoriyatlik Turkistonning muvaqqat hukumati a'zolari tarafdin tabrik qilaman va alar tarafdin sizlarga salom erishdiraman va ham sizlarning tarafingizdan hukumat a'zolariga hozir borib salom aytaman", dedi. Bu so'zlarni eshitganidan so'ng milliy askarimiz nihoyatda mamnun bo'ldilar. Bundan so'ng Ubaydulla afandi milliy askarlarga bir og'izdan "Omin" deb duo qiluvni so'radi. Jumla yigitlar o'zlarining Vatani, millat yo'lida har biri fidokorlikka hozir ekanligini so'ylab baland ovoz ila guldurashib "Omin"

sadolarini ko'kka chiqardilar. Bundan so'ng hukumat rijolari qaytib ketdilar. Askar boshliqlari yigitlarni tartibga solmoq ila mashg'ul bo'ldilar. Bu qadar turk bolalarining jon va dillari bilan Vatani va millat yo'lida har bir fidokorlikka ko'ksilarini kerib, hozir turuvlarini ko'rganda tarixdagi Temur va boshqa buyuk bobolarimizning qahramon askarlari xotiriga kelib, kishining ko'zidan beixtiyor sevinch yoshlari oqar edi", deb xabar beradi. Afsuski, Turkiston muxtoriyati qonga botirildi. Uning mudofaasi uchun jonini tikkan ne-ne yigitlar qoni daryo bo'lib oqdi.

Sovetlar Turkiston muxtoriyatini yakson etgani bilan xalqning erk va hurriyat orzusini yo'q qila olmadi.



O'zlarining Toshkentda e'lon qilgan Turkiston muxtor sho'ro jumhuriyatlarini qanchalik tashviqu qilishmasin, xalq ishonchsizlik bilan sovuq qarshi oldi. Farg'onada boshlangan milliy istiqbolchilik harakati butun Turkiston mintaqasiga tezlik bilan yoyila boshladi. Ana shunday tarixiy sharoitda Turkistondagi bolshevik ma'murlari jadid taraqqiyparvarlarining talabi asosida milliy qo'shin tuzishga rozilik berishga majbur bo'ldilar.

Bu borada taniqli adib Abdulla Qodiriy "Ishtirokiy" gazetasi 1919-yil 4-noyabr sonida "Ju-boy" imzosi bilan yozgan "Bizda askarlik masalasi" maqolasi juda muhim ahamiyatga ega. Muallif so'zni "Boshqalar tarafdin huquqingning toptalmoqi, chetlarga mahkum, mazlum bo'lmaslik, chet mamlakatlarga tovushingini eshitdirib, eshitmoqqa majbur etuvga shubha yo'qim, qo'lingdagi quroling'a, askariy kuching'a qarab bo'lur", deb boshlaydi. "Ko'ramizki, Ovrupo, Amriqo millatlari bunchalik shan-shavkatni faqat harbiy kuch ila qozonmishlardur... Sharqli musulmonlar esa shu qurolsizlik, askar yo'qlig' ila shu zolim xunxo'rlar zanjiriga band bo'lmishmiz... Mamlakat idorasi askarsiz mumkin emas. Idora o'z qo'limizga o'tgach, tabiiy, vatanimizning dushmandan muhofazati-da o'z ustimizga tushajak. Buning uchun o'z askarimiz bo'lur'ga kerak. Tabiiydurki, mamlakat idorasi bizning qo'lida bo'lib, askarlikni boshqalar qilmayajak. Bu mumkin emas ham. Shuning uchun agar-da biz mustaqil, qullikdan qutqilib yashovni xohlar ekanmiz, yaqin istiqbolimizdagi baxtli kunlar uchun askar bo'luvimiz, vatan muhofazasi-ga hozirlanuvimiz lozimdur", deb qat'iy fikr bildiradi. Turkiston Musulmon byurosining milliy qo'shin tuzish haqidagi murojaatiga ularning javobini ayman keltiradi: "Markaz musulmon byurosining murojaatini tamom shodliq ila qarshi olamiz... Eski shaharga ta'lim joylari ochib, harbiy muallimlarni musulmonlardan qo'ysun. Musulmonlarning o'zidan askariy muallimlar yetishtirmak uchun kurslar ochib, shu kundan e'tiboran Eski shahar sinfiy ittifoqlar sho'rosiga bir nafar o'z harbiy vakilini doimiy etib tushursun". Mana bu qaror g'oyat ko'ngilli bir ish, lekin boshqa qarorlarimiz kabi bu-da qog'ozdag'ina qolib ketmovi matlubdir", deb fikrini yakunlaydi.

Ha, ko'p o'tmay Toshkent shahrida harbiy maktabda o'zbek yoshlari uchun guruh tashkil etiladi. "Qizil bayrog'" gazetasi 1922-yil 25-mart sonida kursant Q.Olimiyning "Musulmon piyoda qizil komandirlar kursi" maqo-

lasida "Bu vaqtg'acha musulmon qizil askarlarini idora qilish uchun musulmon qizil komandirlari yo'q edi... 1920-yilda Turkiston jumhuriyatida yolg'iz musulmon yoshlari uchun musulmon qizil komandirlar kursini ochildi... Hozirgi kunda kursda o'zbek, qozoq, qirg'iz, totor, boshqird yoshlaridan iborat ikki yuzdan ortiq kursantlar bor. Bu kursantlar o'qituvchilarning tirishqoqlari orqasida o'zlarining o'qushlarini yaxshig'ina davom ettirib keladirlar... Ular kursdan chiqishlari bilan musulmon qizil askarlari orasiga borib ularga yo'l boshchilik qilirlar... Siz ham musulmon komandirlari kursiga kirib o'zingizning ulug' va milliy vazifangizni o'tashingiz kerak!" deb yoshlarga da'vat qiladi. Albatta, Turkiston hukumatinin rahbarlari ham jon-jahdi bilan kelajakda milliy qo'shin yaratish ishtiyog'ida ishga kirishadilar. Bu mulohazani Turkistonning hukumat rahbari Turor Risqulovning "Turkiston" gazetasi (1923-yil 23-fevral soni)-dagi "Sharqda qizil qo'shin" maqolasida ham, Sulton Segizboyevning "Farg'ona" gazetasi (1923-yil 15-oktabr)-dagi "Milliy qizil askar" maqolasida ham ko'rish mumkin.

Farg'ona viloyatining birinchi rahbari bo'lgan Sulton Segizboyev "...Toshkentda to'rt-besh yuz kishilik siyosiy va harbiy bir kurs ochishga harakat qilib yotmoqda ekan. Bundan tashqari Farg'ona ham diviziya va brigada huzurlaridagi maktablarda milliy sho'balar ochib berilmoqda. Farg'ona bundayin maktablarining huzurida milliy sho'balarining ochilishi tabiiydur..." deb milliy qo'shin ahamiyatini batafsil bayon qiladi va fikrini "Yo'l beringizlar, kelgusida tashkil qilinadurg'on Turkiston milliy qizil askarlarining qahramon qo'mondonlarig'ala" deya tugatadi.



"Turkiston" gazetasi 1924-yil 14-yanvar sonida Turkiston sho'rolari 12-qurolluqining "Milliy qizil qo'shin tashkil qilish to'g'risida" qarori e'lon qilindi. Unda milliy qizil qo'shin tashkil qilish uchun birinchi navbatda qo'mondonlar, siyosiy yo'l boshchilar hozirlash va buning uchun maktablar, qo'mondoniq kurslari ochish; "Turkiston jumhuriyatining har bir fuqarosi qo'lig'a qurol olib o'z jumhuriyatini mudofaa qilishi kerak", degan fikr tarqotusun; yoshlar o'rtasida savodsizlik bitirilsin; milliy qizil askarlarni o'rganish uchun eng oson prog'ram hozirlash va milliy urf-odatlarig'a qarab qo'shunning ruhiga xilof bo'lmaslik sharti bilan nizomnomalarga o'zgartirishlar kiritish; Turkiston jumhuriyatining turmushig'a yaqin bo'lg'on barcha millatlardan, avvalida ko'ngilli miliysiya va qishloq yoshlaridan ham 15 foizgacha o'z ixtiyorlari bilan olish; qizil milliy qo'shinni tashkil qilish uchun milliy urf-odatlarini (ovqat, karavot, ko'rpachalar va kazarmaning ichki turmushi va boshqalar) e'tiborg'a olish; kiyim oddiy va sog'liqqa muvofiq bo'lishi bilan barobar, milliy kiyimga yaqin bo'lmo'gi lozim. Shuning uchun milliy qizil askarlarga boshqa qizil askarlardan ajralaturg'on kiyim formasi belgilash; Yerkil tilda qizil askar gazetasini va darsliklar nashr qilish uchun moddiy yordam berish kerak" kabi o'ta muhim vazifalar qayd etilgan edi.

"Farg'ona" gazetasi 1924-yil 23-fevral sonida esa Farg'ona shahridagi harbiy o'tliq qo'mondoniq kursida musulmon sho'basining harbiy komissari Shamsiddin Badriddinov "Milliy askarlarga muruvvat ham salom" maqolasini "...bugun qizil askarlar safida ozod Turkistonning milliy, qurollang'on kuchiga zamin tayyorlamoqdalar. Bu kun Farg'ona dehqonlari o'zlarining qizil kursantlarini ko'rib, o'ziga maxsus tantana bilan shodliq qiladurlar", deb boshlaydi. Muallif 1923-yil aprelda hukumatning milliy askarlar tashkil etish haqidagi qarorig'a ayrim kimsalarning "qo'rqinch emasmi, keyinda qolg'on Turkiston xalqi bu vazifani o'tay oladurmi?" deb so'zlaganlarini eslab, "Hozirda Farg'onaning o'zidagina Turkistonning yosh o'spirinlari o'zlar uchun g'ayrat bilan ishlab chin ko'ngil bilan harbiy ishlar darslarini o'qub qizil qo'mondon bo'lmoqqa tayyorlanmoqdadurlar. Shundoq, yamg'urdek savollar, shundoq subotliq, qiziq, tirik savollarki, uni siz qat'iy biror boshqa joyda uchrata olmaysiz. Ko'rmak uchun kelgan kishilardan nimani ko'p so'raydurlar? - Kitob, qog'oz, yana kitob, dastur kitobi, qalam, gazeta, yana va yana kitob... so'raydurlar. Siz qimmatli o'rtog'lar kursantlarga samimiy salom! Es-laringda bo'lsinki, kelasi bayram sizlarning qo'mondon bo'lg'on vaqt-laringizda keladir", deb ularga yuksak umid bildiradi. Komissar mazkur maqolaning so'ngida "Bizning kamchiliklarimiz: diviziya maktabi milliy sho'basining kursantlari o'zbek tilida adabiyot yo'qlig'idan shikoyat qilodurlar - bori bir necha nusxa kitoblari bor... O'zbek adabiyotiga ehti-yo'g' katta. Butun tashkilotlarni qarab chiqdilar, ammo hech narsa topmadi. Nizom to'g'risida so'zlamasdan, harbiya ishlar xususida kitoblarining kamligi ko'p bilimmoqdadir. Ovrupo ham Ovrupo Rusiyasining o'zbekcha jug'rofiya xaritasi yo'q. Musulmon tilida plakatlari yo'q. Yozilg'on so'zlarni o'zbekchaga tarjima qilib suratlar tagiga yopishtirib qo'yishga to'g'ri keladir", deb mavjud muammolarga hukumat idoralarning e'tiborini qaratishtirib so'raydi.

Shunday murakkab bir tarixiy sharoitda keyinchalik shonli 19-O'zbek tog'-otliq diviziysi va uning Mirkomil Mirsharopov, Rizo Yoqubov, Yunus Narimonov, Mirzoqul Risqulov, Muhammad Abdurahimov, Turg'unpo'lat Qirg'izov, Sobir Rahimov kabi ko'plab oliy harbiy ta'lim olgan milliy qo'shin qo'mondonlari yetishib chiqdi. O'z davrining afsonasi bo'lgan, ko'plab harbiy qo'shiqlarda madh etilgan, ko'rsatgan jasoratlari tarixiy romanlarning yaratilishiga sabab bo'lgan, mohir qo'mondoniq rangtasvir ustalari va haykaltaroshlarni yangi asarlar yaratishga undagan 19-O'zbek tog'-otliq diviziysi qahramonliklari tadqiqi sarhadisiz tarixning ochilmagan qo'rig'i edi. Ilmii izlanishlarning natijasi jadidlikning ilg'or namoyandalari ham milliy armiyamiz safida uning g'oyaviy asoslarini yaratishda bini mahkam bog'lab kurashganliklarini yaqqol ko'rsatib berdi. Jumladan, jadid taraqqiyparvar shoiri Hoji Muin Shukrulla o'g'li ham "Qizil yulduz" harbiy gazetasida ish olib boradi. Gazetaning keng omma orasida mashhur bo'lib ketishida tajribali publitsist Hoji Muinning katta xizmati bor edi.

Darhaqiqat, Vatani va millat qahramonlarining xotirasi, shonli tarixi va achchiq qismati bugungi yangi O'zbekiston armiyasining har bir askari uchun azizdir. Albatta, bugun ishchi guruh olimlari harbiy mutaxassislar bilan bir safda jadid taraqqiyparvarlari orzusi bo'lgan milliy armiya va uning tarixi haqida keng ko'lami tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Yuzlab matbuot sahifalari, maxsus arxivlardan keng ko'lami hujjatlar o'rganilmoqda. Ishonamizki, yaqin kunlarda bu tadqiqotlarning samarasi o'laroq kattagina tarixiy fundamental asar dunyoga keladi. Haqqoniy tarixni yaratish sari yana bir ulkan qadam bosiladi.

**Salom SAMADOV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Bosh prokurori o'rinbosari,**  
**3-darajali Davlat adliya**  
**maslahatchisi**  
**Bahrom IRZAYEV,**  
**Qatag'on qurbonlari xotirasi**  
 **davlat muzeyi bosh ilmiy**  
**xodimi**

BU KITOBNI O'QIDINGIZMI?

Cho'lponni shoir sifatida yaxshi tanimimiz, ammo uning hayot yo'li, shaxsiyati borasida nimalarni bilamiz? "Go'zal" she'ri qaysi "go'zal"ga atalganini-chi? Yoki Turkistonning qanday qilib bosqinchilar oyog'i ostida toptalgani, kimlar Toshkentni ikki million rublga sotgani haqidagi manbalar bilan tanishmimiz? Agar sizni bu borada asl haqiqatlar qiziqirsiz, taniqli yozuvchi Nabi Jaloliddinning "Cho'lpon" roman-dilogiyasini o'qib chiqishni tavsiya qilgan bo'lardim.

## CHO'LPONNI ANGLASH

yoxud "qizil" tegirmon


To'g'risi, shu chog'gacha Cho'lponning hayoti va ijodiga oid ko'plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlar bilan tanishgan bo'lsam-da, ushbu roman u haqdagi fikrlarimni butunlay yangi bir o'zanga burib yubordi. Romanda XIX asrning oxiri, XX asr boshlaridagi qaltis va murakkab tarixiy vaziyat mahorat bilan tasvirlangan. Rossiya imperiyasining Turkistonni qay tarzda bosib olishi, mustamlakachilik harakatlari, chor istibodiga qarshi zimdan va oshkora olib borilgan kurashlar, jadidlikning shakllanishi hamda tugatilishi, Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi va yo'q qilinishi, dashnoqlar qirg'ini, millat oydinlarining ayovsiz qatag'on etilishi... Asarda nisbatan qisqa davrda yuz bergan tig'iz va shiddatli, shu bilan birga, yuragimizga tig'dek qadaluvtchi ayanchli voqealar haqida batafsil hikoya qilinadi. Jadidlik harakatining eng yirik va faol vakili bo'lgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon bu voqealar mar-kazida turadi. Asar Cho'lponning bir necha suyak naridagi ajdodlari, bobolarining nima ishlar bilan shug'ullangani, otasining savdo-sotiqqa qanday kirib qolganidan boshlanadi. Muallif sizni o'tmishning eng sirli puchmoqlariga yetaklab, isyonkor shoirning tug'ilishini, oilada tarbiya topishi jarayonlarini qiziqarli yo'sinda badiiy ifodalaydi.

Asar syujetiga ko'pam to'xtalmoqchi emasmi. Ammo muallif ushbu murakkab davr hayotini chuqur o'rgangani, manbalar, arxiv materiallarini erinmasdan tahlil qilib chiqqani, turli ilmiy qarashlarni qiyoslab, oltin o'rtaliqni topa olganini e'tirof etish lozim. Zotan, jadidlik davri nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda katta qiziqish bilan tadqiq etilayotgan va turlicha talqin qilinayotgan, hali bu borada izlanishlar davom etayotgan murakkab davr sanaladi. Shu jumladan, Cho'lponning hayot yo'li ham ziddiyatlarga boy, taloto'plar ichida kechganki, ularni bir tizimga solib, shoir qalbinu ochib berish, uning harakatlari va tuyg'ulari uyg'unlashgan nuqtalarni topish oson bo'lmagani aniq.

Roman-dilogiyaning ikkinchi nomi "Tegirmon" deb atalgan. "Dunyo, hayot ham go'yo tegirmon. Odamlar esa - bug'doy donalari", deb yozadi muallif. Ammo Cho'lponning ko'z oldida namoyon bo'ladigan tegirmonning toshi-da, suvi-da, unda aylanayotgan bug'doyi va uni ham qip-qizil... Bu o'sha mudhish davrning qonli voqealariga ishora qilyotgandek go'yo...

Romanda bir qator ramzlar vositasida asarning tag ma'nolari, yozuvchining asl g'oyalari o'z ifodasini topganki, bularni anglash uchun o'quvchidan diqqatni jam-lash va asarni e'tibor bilan mutolaa qilish talab etiladi. Jumladan, qizil tegirmon, shoirmi doimiy ta'qib etib yuruvchi qora chivin, osmon to'la yulduzlar, oy... Bu ramzlarni har kim o'zicha tushunadi. Ammo qayta-qayta o'qiganingizda yana yangi ma'nolar chiqib kelaveradi.

Asarda Cho'lpon bilan bir qatorda, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Munavvar qori, Qodiriy, Elbek, Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Oybek, Uyg'un kabi taniqli ijodkorlarning hayoti va ijodiy faoliyati ishonarli va haqqoniy tasvirlangan. Ayniqsa, Cho'lponning Abdulla Qodiriy bilan uchrashuvlari, Usmon Nosir bilan bo'lgan suhbatlari juda ishonchli va kishining yurak-yuragiga singadigan tarzda dardchil yoritilgan.



Odatda tarixiy shaxslar haqida asar bitilganda qahramonning ijodiy xislatlari bo'rttirib ko'rsatilib, kamchilik va qusurlariga u qadar e'tibor qaratilmaydi. Haddan ziyod maqto'v va ideallashtirish o'quvchining ham g'ashiga tegishi bor gap. Ammo "Cho'lpon" romani qahramonlari o'z gacha fazilatlar bilan birga qusurlari, xato va kamchiliklari ila namoyon bo'ladiki, bu kitobxonni ularga yaqinlashtiradi, suhbatdoshga aylantiradi, o'sha davr muhitiga olib kirib, jadidlar bilan zamondosh qilib qo'yadi.

To'g'risi, bu asarni o'qish davomida jadid bobolarimizga bir do'st o'laroq "hasrattashib", ularning iztiroblaridan ko'zimga yosh kelgan, quvonchdan joyimdan igr'ishlab yuborgan paytlarim bo'ldi. Bu ham romanning eng muhim yutuqlaridan biridir.

Asar voqealari qariyb bir asrcha oldin yuz bergan bo'lsa-da, roman qahramonlari bugungi tilimizda so'zlaydi, eski o'zbek tili elementlari aralashmaydi. Tilimiz jonkuyarlari bo'lgan jadidlar bugungi Toshkent shevasiga monand "man" deb gapiradi. Balki, yozuvchi bugungi kun o'quvchilariga tushunarli bo'lishi uchun shu usulni tanlagandir. Ayrim o'rinlarda dialoglar o'rni-ga suhbat mazmunining muallif tilida bayon etilishi va ba'zi tarixiy voqealar tasvirida bayonchilikning kuchayib ketgani asarning badiiyligiga soya solgandek, nazariyda. Yozuvchi har bir satrni yozayotganida o'quvchiga tushunarli bo'lishi, zarur tafsilotlardan birortasi qolib ketmasligiga e'tibor qaratadi. Ayrim joylarda qavs ichida tushuntirishlar berib ketadiki, bu o'sha davr tarixidan bexabar yoshlarimizning asar voqealarini to'la anglashida qo'l keladi.

Taniqli cho'lponshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Dil-murod Quronov shunday yozgan edi: "Cho'lpon tanglayi millat dardi bilan ko'tarilgan shoir edi. Uning hayotdagi amallari ham, ijoddagi izlanishlari ham millatning ertasi haqidagi tashvish, millat taraqqiyoti, millat ozodligi kabi ulug' niyatlar bilan chambarchas bog'liq edi". Darhaqiqat, shunday. Nabi Jaloliddinning ushbu roman-dilogiyasini mutolaa qilish orqali Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning ana shu xislati, fazilatini yanada taranroq, yanada aniqroq his etish mumkin. Bu kabi asarlar ko'proq targ'ib etilishi, ko'proq o'qilishi, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ong-u shuuriga chuqur singishi bizning milliy o'zligimizni topishimizga, jadid bobolarimiz orzu qilgan taraqqiyoqqa tezroq erishishimizga xizmat qiladi.

**Bekzod IBRAGIMOV,**  
**Alisher Navoiy nomidagi**  
**Toshkent davlat o'zbek tili va**  
**adabiyoti universiteti**  
**mustaqil tadqiqotchisi**



# HALIMA HAM O'TIB KETDI, BILMADIK...

Boshlanishi 1-sahifada.

"Mening Toshkentga kelib qolishimga jannatmakon ustoz, davlat arbobi Sharof Rashidov sabab bo'lganlar. U kishi Sirdaryoga borganlarida "Sirdaryo haqiqati" gazetasida mening she'rlarimni o'qib, o'sha yillardagi viloyat hokimi (oblast partiya qo'mitasining kotibi – A.Y.) Nosir Mahmudov va gazeta bosh muharriri Ismoil Sulaymonovga otam bilan gaplashib, maktabni tugatganimdan so'ng meni (unda 9-sinfda o'qirdim) Toshkentga o'qishga yuborishlarini tayinlab ketgan ekanlar" (Halima Xudoyberdiyevaning xotiralaridan).

Baribir o'ylanib qolasan. Ishi qalashib yotgan, tom ma'noda bosh qashishga vaqti yo'q arbob, bir yurtning kattakoni erinmasdan viloyat gazetini o'qimaganida, undagi qizaloqning she'riy mashqlariga e'tibor qaratmaganida, bu bitiklarda favqulodda iste'dod uchunlarini ko'rmaganida nima bo'lardi? Onasining xotirlashicha, faqat kitob o'qiydigan, o'choq boshidayam bir narsalarni yozib o'tiradigan qizaloq o'z salohiyati bilan baribir bir kuni katta adabiyot osmonida yulduz bo'lib porlay olarmidi yoinki qalamini ketmon-kosovga, tuyg'ularini esa o'zbekning to'y-tomoshga ko'rinishidagi azaliy orzu-havaslariga almashib, tirikchilikning adoqsiz tashvishlariga g'arq bo'larmidi...

Har nechuk, aslini olganda ham adabiyotga, iqtidorga e'tibor – kelajakka e'tiborligi Halima opa misolida yana bir bor o'z isbotini topdi. Illo, Halima Xudoyberdiyeva juda qisqa fursatda o'zbekning eng taniqli, tilga tushgan, suyuqlik shoirasiga aylandi.

O'tgan asrning yetmishinchi yillari. Biz Mirzacho'lning qoq markazida joylashgan Oqoltin tumanidagi maktabda o'qiydiz. Kutubxonamiz anchagina katta edi, biroq baribir kitob yetishmasdi, yaxshilari esa



qo'lma-qo'l o'qilardi. Shunday kunlarning birida kutubxonamizga "o'zimizning cho'llik shoira"ning "Oq olmalar" kitobi kelib qoldi deng. Ana navbat-u, mana navbat!.. Tez orada o'qilaverganidan titilib ketgan to'plamdagi she'rlar yod bo'lib ketsa hamki, o'quvchilar uni qo'ldan qo'yishmasdi. Yaxshi kitobning ana shunday ohanrabosi bo'larkan-da.

Shundan so'ng opaning nashrdan chiqqan qay kitobiki bor, topib olib o'qiyverdik: "Chaman", "Suyanch tog'larim", "Bobo quyosh", "Issiq qor"... Illo, yurak qoni bilan, o'tanib yozilgan asargina yuraklarni alg'ovdalg'ov qilib tashlaydi, qayta-qayta o'qishga ehtiyoj uyg'otadi. Bu borada Halima opaning ijod tutumi ayon edi:

*Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,  
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim.*

Yashirib nima qilay, biz sirdaryoliklar shunday buyuk shoiramiz borligidan faxrlanardik, g'ururlanardik. To dunyoda o'zbek degan xalq bor ekan, Halima Xudoyberdiyevaning betakror asarlari qayta-qayta o'qilaveradi, uqilaveradi, bu esa asl ijodkorimizning baxti, saodatidan, abadiyatidan shohidlik berib turadi deya qat'iy ishonardik ham. Biroq, salobati bosarmidi, opaning yaqiniga borishga haddimiz sig'masdi, "nimani qoyillatib qo'yibmizki..." degan xijolat aralash andisha ham bor edi orada.

Shukur, asrimiz boshlarida ulug' shoira bilan bir gazetada ishlash imkoniyati nasib etdi. Bu yillar mobaynida opani kuzatdim. Va shu paytgacha Halima opani ulug' shoira sifatida tanib kelgan bo'lsam, endi cho'ng irodali, hayot sinovlariga matonat bilan bar-

dosh bera oladigan, uqublatli sitamlarini ichiga yutib, alamli hissiyotlarini birovgga ko'rsatmay yashashga qodir Shaxs sifatida kashf etdim. O', o'sha kunlardagi gurunglarimiz... Ayniqsa, "O'sh-O'zgan faryodi" daftari" haqida gaplashganimiz... Shoira bemisl iztirob bilan, ko'z yoshlari aralash "Unutganning kuysin ikki dunyosi" she'ri haqida so'zlaganda men atoqli sinchimiz Qozoqboy Yo'ldoshev nima uchun Halima opani "Turonning ona yo'lbarasi" deb ataganini ilg'aganday bo'ldim.

Shunday shoira-ya... Vatanni, ko'hna Turonni Halima opaday sevadigan, boshiga ko'taradigan yana biron shoir bormikan o'zi, deya o'ylanib qolardim ba'zan. Mana bunday o'tli misralarni eslaylik-a:

*Qon aslan yorug'lik. Yorug'lan, tiz cho'k,  
Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar.  
Qancha qoning bo'lsa, Vatani uchun to'k,  
Qancha shoning bo'lsa – Vatanni ko'tar!  
Shunday shoirani...*

"Qora ro'yxatlardan ijodkorlarning o'chirganligini qo'llayman, albatta. O'zim o'sha qora ro'yxatda edim. 22 yil istalmagan shaxs bo'ldim. 22 yil radio va televideniya uzoq tutildim. 22 yillik tanaffusdan keyin o'tgan yilning dekabrda televideniya yuzim ko'rindi". (Halima Xudoyberdiyevaning 2017-yilgi intervyusidan).

Shoiraning o'sha yillari yozilgan she'rlari n o'qing, yuragingiz orqaga tortib ketadi: *Oyog'ingizgacha yalab yotdi bo'rilar, Yedirdingiz, bo'g'zigacha botdi bo'rilar. Qaltis kunlar kelganining hidin oldi-yu, Kuni uchun tag'in Sizni sotti bo'rilar...*

*Yoki:  
Kotiblarim yoqildi...  
Qiziq,  
Shon kelganimi bu,  
Yo ketganimi shon?*

*Bu yutuqmi yoki yutuqiz,  
Bu holga tushunmay  
O'zim ham hayron...*

Biz ham hayron qolamiz, biz ham hayratga tushamiz. Ishongimiz kelmaydi. Lekin bu haqiqat. Bizga ko'p saboqlar bera oladigan haqiqat.

Aloha haq qaror topdi. Halima opa uchun haqiqiy dorilomon kunlar keldi.

"El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlanganida ko'rganman: shoira birdan yasharib ketdi. Ko'zlar chaqnagan, lablarda masrur tabassum, qadamlar yengil... Hayratlanganimdan, "Haliyam yosh, haliyam go'zal" degan hikoya yozgandim.

Vaholanki: *Charsillagan bir o't yonar ichimda,  
Men she'r aytсам, aytmadim til uchinda.  
Bu taloto'p, quv-quv, chop-chop ichinda  
Halima ham o'tib borar, bilmaslar...*

Ha, shunday shoira o'tdi, biz bilmay ham qoldik.

Bugun viloyat markazi Guliston shahrida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi l'jod maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Maktab yonida shoiraning muhtasham haykali qad rostlagan.

Elini suyib o'tgan shoira hamisha el ardog'ida bo'lishi ham joiz-da. O'zbekiston xalq shoiri, Davlat mukofoti laureati, "El-yurt hurmati" ordeni sohibasi Halima Xudoyberdiyeva butun O'zbekiston ahlining suyumli ijodkoridir. Abdulla Qahhorning bir gapi bor: "Gurjistonda madaniyat tarixiga oid bo'lsa, o'lgan otning taqasini ham baxmalga qadab osib qo'yishar ekan". Halima opa esa katta adabiyotimizning katta ehtiromga munosib ajralmas, zalvorli bo'lagi. Halima opa ijodi – tubsiz ummon. l'jodkorning asarlarini qanchalik ko'p o'qisak, shuurimiz shunchalik yuksaladi, qalbimiz uyg'oqlashadi.

**Abduqayum YO'LDOSHEV,  
yozuvchi**

## SHE'RIYAT

# DORILOMON KUNLAR KELDI

Halima XUDYOYBERDIYEVA,  
O'zbekiston xalq shoiri

### MUQADDAS AYOL!

Oshiq'larning poyingga gul otib ham bo'ldi,  
Xilvatlarda labingdan bol to'lib ham bo'ldi,  
Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

Avval: "Kel-ey, quchog'imga to'li, balq", dedilar,  
Unamading, "ayol o'zi ters xalq", dedilar,  
Icholmagach, yuz o'girib: sho'r, talx... dedilar,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

Sen daryoson, o'pganini qirg'oq yashirar,  
Juftim bo'l, – deb chopganini har toq yashirar,  
Jannatim, – deb quvonmasdan qumloq yashirar,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

Asli bu bor emaklarning borar yeri Sen,  
Rost-u yolg'on emaklarning borar yeri Sen,  
Asov otday emaklarning borar yeri Sen,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

Chorlashganda sen kelsang, goh bekor kelsang-da,  
Mast davrada bir sarin yel, bir tor kelsang-da,  
Xor kelsang-da, nomardlarga goh xor kelsang-da,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

Qimtinasan, astagina ko'tarasan bosh,  
Ming yillikdir ko'zingdagi jovdiragan yosh,  
Gunohkorlar ming-u bitta Senga tegar tosh,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

Harir, xushbo'y badaningda toshlar izi bor,  
Ko'kratingda egilgan ne boshlar izi bor,  
Quyosh izi, kuydirgan quyoshlar izi bor,  
Sen baribir muqaddassan,  
Muqaddas Ayol!

### DORILOMON KUNLAR KELDI...

Onaginam!  
Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol,  
Qayon boqsang, shaylanishlar va sozlashar tor.  
Olcha gulini ko'zlaringga surtasan behol:  
"Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor".

So'lg'in-so'lg'in lablaringdan ucharkan shu so'z,  
Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.  
Dorilomon kunlarga qayt, onam, yumib ko'z,  
O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat.

Bu tabiat suyumlidir ham ko'zlari ko'r,  
Goh sharobdan, goh og'udan qilar bizni mast.  
Belginangga tirgak bo'lay, onajonim, tur,  
Dorilomon quyoshga boq, unga qasdma-qasda.

Yuzing ardoqli quyoshday issiq va mahvash,  
Ko'zlaringda umid yonar tikilgan oni,  
Qorli kunlar bilan ketsin dilingdagi g'ash,  
Qizg'ish, lola rang qoplaydir bu kun dunyoni.

Bu dunyoning qir-darasin xosiyati mo'l,  
Yerni yalang oyoq bossang yayraydi taning.  
Yashamoq – bir tansiq taom, unga ursang qo'l,  
Borgan sari ochiladir ishtahang saning.

Bog'lardagi yetilgusi har mevali shox  
Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinlikdir.  
O'g'lonlaring kelar, ana, ochishib quchoq,  
O'g'lonlaring meva qadar bir shirinlikdir.

Onaginam!  
O'zing tortma davralardan, el chorlaganda,  
"Tiriklikning bayrami", deb sozlanganda tor.  
O'zing so'lg'in lablar bilan pichirlaganday:  
"Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor".

### TURON

**Turklikning muqaddas o'chog'i Turon  
Abdurauf FITRAT**

O'ngimda ruhimga o'q otgan fikr,  
Ko'nglimga bir yorug' cho'g' otgan fikr.  
Uyqumda qonimni uyg'otgan fikr:  
"Turklikning muqaddas o'chog'i Turon".

Moziyi har otar tongni emizgan,  
Har tig'li aqlni, ongni emizgan,  
Bo'ri, tulkimas, arslonni emizgan –  
Turklikning ko'kragi, bulog'i Turon.

Ko'kiga turnalar "qur-qur"lab botgan,  
Otganda kamoni bexato otgan.  
Temurday xoqonlar qirg'irlab yotgan,  
Turklikning beshigi, quchoq'i Turon.

Keyin... orqadan yov toshlari yetgach,  
Sara keksalari, yoshlari ketgach,  
Tarqoq arslonlarning boshlari ketgach,  
Yerning tutab yotgan qir, tog'i Turon.

Boy-boy bobolarim boyib, yiqildi,  
O'z qoniga o'zi toyib yiqildi.  
Bir-biroviga bosh qo'yib yiqildi,  
Ko'nglimning kuyigi, dard, dog'i Turon.

Shukur, xun uyg'otdi qaytadan qonni,  
Arslon bolalari qaytadan yondi.  
Yovlar ololmagay endi Turonni,  
Bugun, tik arslonlarning tog'i Turon!

### VATAN JIM TURADI

Vatan jim turadi, ammo u haqda  
Tog'dan tushib kelgan tosh so'z aytadi.  
Bir sadolar kelar jim-jim kurtakdan,  
Osmondan kelgan quyosh so'z aytadi.

Vatan jim turadi, bayrog'i yonib,  
Boshidagi tug'i aytadi so'zni.

Moziylardan kelib – chir-chir aylanib,  
Momomning urchug'i aytadi so'zni.

Vatan jim turadi. Sabolarining  
Naylarga qo'shilib bo'zlari ko'pdir.  
Saraton. Dashtdagi bobolarimning  
Pastak chaylalarin so'zlari ko'pdir.  
Vatan jim turadi...

### TOMOQ QIRISHI

Ota kelganini doim qish-u yoz  
Tomoq qirishidan bilar edilar.  
Bola-yu kattalar chiqardi peshvoz,  
Barsday yurishidan bilar edilar.

Endi u yo'lbaras yo'q, tortmasdan sergak  
Bemalol o'tirar, uyda ayol – oy.  
Erkak shunday bo'lsa, kelganda erka  
Ayol tipirchilab topmay qolsa joy.

Bu ayol oldinam bemalol edi,  
Uddalay olmadi erga shamlilikni.  
Qabul qilolmadi erkakning didi  
Ayoldagi bu tur xotirjamlikni.

Ayol endi hushyor, qulog'i ovda,  
Yig'lab eslar erin har bir kirishin.  
Endi tushlarini qilar bezovta  
Shovqin. Va erkakning tomoq qirishi.

### BATAMOM UYG'ONSAM...

Turayotgan qushga  
O'xshayman juda,  
Qushlarga o'xshayman  
Uyg'onayotgan.  
Ba'zi tomirlarim  
Hali uyquda,  
Ba'zi tomirlarda  
Qonlarim qotgan.  
Xas-xashaklar bilan

Sudralib yurib,  
O'qlik orzusida  
Ketib borar yoy.  
O'zimcha nelardur  
G'udranib yurib,  
Guldayin umrimni  
Bermoqdaman boy.  
O'zimcha kimningdir  
G'amini yedim,  
Kimningdir kuniga  
Yuribman yarab.  
Batamom uyg'onib  
Ololsam edi,  
Uchib ketarimdim  
Ko'klarga qarab.

### KUTISH

Ballada

Bilmam, to'g'rimidi va yoki xato,  
O'g'ilchasin uch kun kuttirdi ota.  
Uch kun unga umid bog'ladi yetim,  
Uch kun kir yengiga yig'ladi yetim.  
Keyin ota kutdi. Uch yillab kutdi.  
Ko'zi yoshdan xira, g'iltillab kutdi.  
Chiqib kunshuvoqqa, tom orqasiga,  
Sog'inchlarin ekdi tomorqasiga.  
Keyin... o'ttiz yillab ko'zi yo'l o'ydi,  
Keyin ko'rmay qoldi. Ko'ziyam to'ydi.  
So'ng... timirskilanib chiqdi so'riga,  
O'ldi. Shu yuk bilan ketdi go'riga.  
So'ng...  
U ham umr bo'yi bo'lganmidi xit –  
Ular-chun uv tortdi hovlida ko'r it.

### MAJNUNTOL

Majnuntol, ey, egib shox  
Sen kimlarga sir aytiding.  
Baridan bo'ldim ogoh,  
O'n aytidingmi, bir aytiding.

Siringni suvga solma,  
Bargingdan g'am arisin.  
Bir siringni ololmay  
Yosh dunyolar qarisin.

Sen ham ko'zin yoshini  
Hech kim ko'rmas bir naysan.  
Faqat ishqing yashirib  
Mendek yig'layolmaysan.



TADQIQOT

# YER MASALASIGA DOIR UCH VASIQA


**A**bdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1932-yili Toshkentda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar qo'mitasining til va adabiyot bo'limida professor vazifasida ishlayotganida bu ilm dargohining nufuzini ko'tarish uchun filologiya sohasida kadrlar tayyorlashga katta ahamiyat berdi. Akademik Izzat Sultonning qayd etishicha, Fitrat uning "Navoiy "Mezon-ul-avzon" asarining kritik teksti" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilgan. Shuningdek, u 1936-yili "Aruz haqida" ilmiy risolasini yozgan. Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi ko'plab asarlarni ham o'rganib, ularning tavsifini yaratgan. Ayni 1932-yili professor Fitratga sobiq ittifoq Fanlar akademiyasi tomonidan O'rta Osiyo tarixiga oid hujjatlarga doir tavsifiy maqola yozish vazifasi topshiriladi. Bunga javoban Fitrat "O'rta Osiyoda yer masalasiga doir uch vasiqa" (1933), "Sobiq Buxoro xonligida yer munosabatlari tarixiga doir materiallar" (1935), "XVI asrda qozixona hujjatlari" (1937) kabi tavsifiy maqolalar yozadi. Bu hujjatlar o'z vaqtida rus tiliga tarjima qilinib, Markazga yuborilgan va nashr etilgan, biroq ularning asliyatini saqlanmagan.



gan ma'lumotlar ham uchraydi. Masalan, 70 va 265-xatlarda qo'qonlik mashhur shoir Junaydulloh Hoziq tarjimai holi ga tegishli ma'lumot bor. Shuningdek, u hijriy 1259-yilda Shahrisabzda Amir Nasrulloh buyrug'i bilan o'ldirilgani aniq yozib qo'yilgan. Ushbu manbadan foydalanib, P.Qayyumiy Hoziq o'limi voqeasini o'z kitobida batafsil yoritgan.

Hujjatlarda Buxoro amirligidagi soliq tizimi haqida ham so'z yuritiladi, "mulki hukm", "mulki hur", "xiroj", "safidiy", "kabudiy" va boshqa soliq turlari keltiriladi hamda bu yerlarda ishlovchi koranda (yer ishlovchi), muzoreh (yerni ijaraga olgan shaxs); davlat yerlari, vaqf yerlari va xususiy yerlar hamda ularning soliqqa tortilish shartlari bayon etiladi.

Nazarimizda, bu muhim hujjatlar to'plami Fitrat domlaning kutubxonasida uzoq saqlangan. U 1917-1918-yillarda "Hurriyat" gazetasida muharrirlik paytida e'lon qilgan "Buxoroning askari" (1917-yil 23-avgust, 29-sentyabr), "Buxoro ulamosi" (1917-yil 4-noyabr), "Buxoro xonligida



ochlik" (1917-yil 21-noyabr), "Buxoroning holi" (1918-yil 12-yanvar), "Buxoroda inqilob" (1918-yil 19, 26-fevral, 1-mart) kabi maqolalarda ushbu hujjatdan foydalanib, Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy ahvoli haqida ma'lumotlar bergan. Masalan, "Buxoroning holi" maqolasida ("Hurriyat", 62-son) keltirilgan mulki hur (ozod yerlar), vaqf mulki, mulki hirojiy kabi mulklar va ulardan olinadigan soliqlar xususida xabar berilgan.

Maqolada tavsif berilgan uchinchi

Professor Fitrat tomonidan 1933-1937-yillarda jiddiy o'rganilgan manbalardan biri "O'rta Osiyoda yer masalasiga doir uch vasiqa (hujjat)" ("Три документа по аграрному вопросу Средней Азии") maqolasi bo'lib, u "SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xabarlar" ("Записки Института Востоковедения Академии Наук СССР") jurnalining 1933-yil 2-soni 2-qismida F.B.Rastopchin tarjimasida e'lon qilingan.

Maqola muqaddimasida aytilishicha, "O'rta Osiyoda turli davrlarda va davlatning har xil joylarda rasmiy saroy tarixiga oid ko'psonli manba va hujjatlar mavjud" bo'lib, ularning mintaqa davlatlaridagi saroy hayoti hamda hukmdorlarning tarjimai holi ga oid qimmatli ma'lumotlar borligi aytilgan. Maqolada xonliklardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganishga xizmat qilgan uch hujjat tavsifi berilgan.

Birinchi hujjat Sankt-Peterburg Sharqshunoslik institutida saqlanuvchi "Shayboniyxon vaqfnomasi" deb nomlangan bo'lib, 107 varaqdan iborat. Fitrat bu hujjatning asl manbadan ko'chirilgan nusxa ekanini aniqlagan. Muhrilangan varaqlarda Abdulvohid Laysiy ismi qayd etilgan. Garchi hujjat "Shayboniyxon vaqfnomasi" deb nomlangan bo'lsa-da, u bevosita Shayboniyga emas, Temur sulton ibn Shayboniyning xotini Mehr sulton xonimga tegishli ekan. Hujjatda Shayboniyxon Bobo Xudoydod mavzesidagi Xoniya madrasasiga asos solingan, lekin uning qurilishiga Shayboniy o'limidan keyin o'g'li Temur Bahodirxon sulton rahbarlik qilgani, u ham qurilishni yakuniga yetkazolmay vafot etgach, madrasani uning xotini Mehr sulton xonim qurib tugallagan yozilgan. Hujjatda barcha mulklarning nomlari keltirilgan hamda ayrim yer egalari ismlari ko'rsatilgan: 1) Amir Boqi Muhammad Tarxon Amir Abdul Ali Tarxon o'g'li (bu inson Buxoro hokimi Sulton Ahmad Mirzo Temuriy davrida Shayboniy xizmatida bo'lgan); 2) Amir Qanbar Ali Tarxon ibn Amir Bastom Tarxon; 3) Mir Maxdum nomi bilan tanilgan Amir Sayyid Ibrohim al-Husayniy al-Kirmoniy; 4) Xojako Amir Darvish. Bu mulkdorlarga tegishli Vahshatiy, Ankor Qurhil, Angor Injukal, Rojkent, Shavkaz, Zujkat, Shoshiqi Olib, Dashti To'g'on, Yorimto'q, Nofax, Bajnom, Yag'nu, Xashidak, Obi Lumlum, G'ubdin, Yozmudin, Jomxin, Mog'uvin, Potron, Tirkat, Sakbodza, Vijkat kabi joylarning nomlari ham keltirilgan.

Hujjatda o'z davrida yer-mulk munosabatlarida qo'llanilgan tiyul, mamlaka(t), milk, sakinot, dehai bosh kabi atamalar uchraydi. Ikkinchi hujjat "Amir Haydarning Sayyid

FIKR

## TIL BILISH MUHIM, VATANNI BILISH UNDA HAM MUHIM

**Ko'p bo'lmadi, bir muassasada xorijga magistraturaga o'qishga ketishni rejalashtirib turgan yigit-qizlarimizdan imtihon olishimizga to'g'ri keldi. Ular allaqachon bakalavr darajasini olib bo'lishgan. Avvalo, ular orasida iqtidorli, bilimli, saviyali, aql-farosatli ilg'or yoshlarimiz bor ekanligini alohida ta'kidlab o'taman. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaydi. Kurmak guruchdan ko'payib ketsa ham bo'lmaydi.**

Imtihon vaqtida asli Toshkentning Shayxontohur tumanida tug'ilib o'sgan, Shayxontohur ota ziyoratgohiga yaqin joyda yashaydigan bir yigitdan "O'zing yashaydigan joyning nima uchun Shayxontohur deb atalishi haqida gapirib ber", desam, "Shunchaki joy nomi", deb qo'ya qoldi. Movarounnahrning atoliq namoyandasi bo'lgan Shayx Xovandi Tohur haqida ataylab so'rasam-da, bir so'z ham demadi. U o'zi tug'ilib o'sgan tuman nomi tarixini bilmas ekan, lekin ikki-uch tilida

gaplasha oladi. Shunisiga ham shukur, hama til bilan ekan-ku, deb tilimni tishladim.

Yana bir yigitdan... har kuni o'qishga kelish va qaytishda poytaxtimizdagi Xasti Imom yodgorligi yonidan ikki marta o'tadigan yigitdan Xasti Imom majmuasi kimning nomi bilan bog'lanishi haqida, u yerda kimning xoki yotgani haqida so'raganimda, "Shunchaki tarixiy joy", deb qo'ya qoldi. U shu manzilda yotgan buyuk bobomiz Qaffol Shoshiy haqida tasavvurga ham ega emas ekan, lekin ikki tilni bilarkan. "Hama, ikki tilni..." deb og'ir yutindim.

Yana bir Lukchayev familiyalii yigitdan, ko'p uzoqqa yurmay dedim-da, o'z familiyasi, ya'ni bobosining ismi qanday ma'noni anglatishi haqida so'radim. U esa tap tortmay: "Bobomning ismining ma'nosi ruschadagi luk so'zidan. Piyoz degani. O'sha paytlarda ruslar ta'siri kuchli bo'lgani uchun Lukcha deb nom qo'yishgan", deb javob berdi. Shundan keyin unga sen Lukchayev emas, Lo'kchayevsan. Shu

paytgacha o'z familiyang bilan qiziqib ham ko'rmaganing meni hayron qoldirdi, deb lo'kcha so'zining ma'nosi "boshi kichikroq, bo'yni uzun, bir o'rkachli katta tuya, yetakchi tuya" degani, Norchayev kabi, deb tushuntirdim. Yigit gaplarimga ko'p ham ishonmadi. Holbuki, o'z bobosi ismining ma'nosini bilmaydigan bu yigitimiz ikkita tilni bilarkan. Yana "harna-da" demoqchi bo'ldim-u, lekin orim keldi. Bularning til bilib, o'zini bilmagan uchun "harna-da" degan suyuq loy bilan andavakashlik qilishim kerakmi?

Misollar ko'p, lekin hammasini dastaklash ham shartmas. Eh, yoshlar, yoshlar... Baraka topgurlar. Albatta, ko'p tilni biling, dunyoni ko'ring, olamni kezing, o'rganing, qancha ko'p til bilsangiz, shuncha yaxshi. Lekin avval Vatanni biling.

Yuqoridagi so'zlarimdan saviyali, yurtparvar yoshlarimiz ranjimasinlar. Ularning yo'rri'g'i boshqa. Men asosan og'riq nuqtalarimiz haqida gapirdim.

Eshqobil SHUKUR

NIQOH

**O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzo zamonaviy o'zbek tasviriy san'atida badiiy merosimizni faol o'zlashtirib, yangi ifodaviy uslublar ustida ish olib borayotgan izlanuvchan ijodkorlarimizdan biri hisoblanadi.**



## MUSAVVIRONA IDROK

Ustoz musavvirning grafika san'ati va rangtasvir sohasidagi izlanishlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ijodkor grafikaning o'ziga xos jihatlari juda nozik idrok etadi, chizgilar yordamida murakkab badiiy yechimlarga boy mustaqil asarlar yaratadi. Bunday asarlardagi chizgilar o'zining musiqiyligi bilan ajralib turadi. Alisher Mirzoning grafika janridagi turkum ishlari qatag'on qurboni bo'lgan buyuk adib, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Yurtimizda ulug' yozuvchining asarlarini o'qimagan, Otabek va Kumush, Anvar va Ra'no'ga havas qilmagan, ularga o'xshashni istamagan inson kamdan-kam topilsa kerak. Biroq o'qigan boshqa, ko'rgan boshqa, deydilar. Mabodo Abdulla Qodiriy rassom bo'lganida, shubhasiz, bu qahramonlarni kontrast bo'yoqlarda tasvirlagan bo'lardi. Zero, adibning o'zi lutf etganidek: "...Men rassom emasman. Agar menda shu san'at bo'lg'anda edi, so'z bilan biljirab o'tlurmas, shu o'runda sizga Ra'noning rasmini tortib ko'rsatar, qo'yar, faqat menga Ra'no gullining suvigina ko'proq kerak bo'lar edi..." Adibning har bir so'zi sozning tarang tortilgan torini eslatadi. Alisher Mirzo ana shunday atoqli insonning taqdirini musavvirona idrok etgan.

Abdulla Qodiriy haqida xalq orasida tarqalgan gaplarni eshitib, uni beqiyos qudratga ega yozuvchi sifatida tasavvur qilgan rassom, avvalo, adibning "O'tkan kunlar" romanini qayta-qayta o'qib chiqqan va asar bosh qahramonlarining o'zaro munosabatlariga ko'proq e'tiborini qaratgan.

Ish jarayonida rassom ko'plab material to'pladi. Bu borada yozuvchining o'g'li Habibulla Qodiriyning yordami katta bo'ldi. U kishining ko'rgan-kechirganlari, hikoyalari musavvirga asqotdi. Shular asosida rassom Abdulla Qodiriyning yetti-sakkiz yoshlardagi qiyofasini yaratdi. Shuningdek, musavvir Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini o'rganish jarayonida o'zi uchun ko'p narsalarni kashf qildi. Avvalo, adibning oila a'zolari - farzandlari, nabiralari bilan yaqindan tanishdi. Ular bilan birga adibning hovli-joyi tarhini chizdi va shu asosda imorat, shiyyon, darvoza, derazalar, hovuz, uzumzor, daraxtzor, poliz, bo'g'otgacha - barchasini qayta tikladi. Shuningdek, u adibning "O'tkan kunlar" romani sujeti bilan bog'liq kartinalarni yaratishga astoydil tayyorgarlik ko'rdi. Asarda kartinabop holatlar juda ko'p, faqat ularni ko'ra bilish lozim edi. Masalan, Otobekning Mirzakarim qitidor uyidan haydalib, otini yetaklab ketayotgan holati. Bu holatni "Inson va boshi berk ko'cha" deyish mumkin, ushbu holatda juda katta dard va mazmun mujassam. Balki shuning uchundir, Alisher Mirzoning ushbu yo'nalishda ishlagan suratlarini Abdulla Qodiriy asariga shunchaki illyustratsiya deb bo'lmaydi. Rassom kitobga illyustratsiya chizmagani, balki dard va iztirob bilan qo'rilgan go'zal asarlar turkumini yaratgan. Bu esa uning yuksak mahoratli rangtasvirchi rassom ekanligidan dalolatdir.

Mazkur turkumga oid asarlarda bir holatni kuzatish mumkin: qahramonlarning qiyofasi o'xshashligi saqlanmagan, ya'ni bir kartinadagi Otobek va Kumush boshqa kartinadagiga o'xshamaydi. Ma'lumki, har bir kitobxonning o'z Otabegi, o'z Kumushi bor. Aynan shu sababdan rassom bu kartinalar keng miqyosda idrok qilinishi mumkin bo'lgan, mustaqil asarlar bo'lib qolishini istagan.

Tarixiy mavzudagi asarlarda ashyoviy dalillar katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda, Alisher Mirzo o'z asarlarida XIX asr amaliy san'ati namunalari, me'morchilik, liboslar, turli taqinchoqlardan va hatto, Abdulla Qodiriyning qamoqxonada tushirilgan fotosuratidan ham unumli foydalangan. Bu ishda rassom kino san'atiga daxldor bir usulni ishlatib, qatag'on davri fojiasini tasvirlashga erishgan. Bu asarlarning o'ziga xos qimmatli ham shunda.

Ochig'i, Abdulla Qodiriyning suronli hayoti va yuksak ijodini yoritishga birgina rassomning umri kamlik qiladi. Alisher Mirzo adibni qanday tushunib, qanday tasavvur etganini "O'tkan kunlar" asariga ishlangan tasviriy san'at asarlari misolida berishga intilgan. Bu o'lmas asarga sharh va talqin shart bo'lmagan kabi, ushbu suratlar ham izoh darkor emas. Ularni ko'rmoq, angamoq, ko'ngil ko'zgusiga joylamoq kerak. Zero, musavvir tasvirlar orqali bizga saboq beradi. Bu tasvirlar Alisher Mirzoning ko'ngli va ruhdan yuvudga kelgan. Ustoz rassomning hali rejalari ko'p. Abdulla Qodiriy siymosi uni hamisha o'ziga tortib turadi.

**Dilafroz QURBONOVA, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti prorektori, tarix fanlari doktori**



## MULOHAZA

# “HAR KISHI ERMEN DEBON ERMU BO‘LUR...”

Ma'lumki, “er” so'zi nutqimizda “er kishi”, “biror kimsa”, “turmush o'rtoq”, umuman olganda, ma'lum bir jins vakili ma'nolarida ko'zga ko'rinadi. Bugungi kunda mazkur nom asosan o'rta yoshdagi erkaklarning sifati hisoblanib, yosh yigitlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Biroq ushbu lafzning tarixiy mohiyatiga diqqat qaratsak, uning butun turkiy millatlar fe'l-atvori, turmush tarzi hamda qadriyatlarini o'zida jamlay olgan ulug'vor istiloh ekanligiga guvoh bo'lamiz.

el so'zi, “Er qadrini og'asi emas, eli bilar” kabi hikmatli so'zlarning yaralishi ana shu mohiyat bilan bog'liq. Xalq og'zaki ijodi namunalarida alplar er yetib, xalqni boshqarishi eng muhim jihat hisoblangan. Ularning elga xizmati shu bilan belgilangan:

*Ota yurtin Yodgor qo'zim tebratar,  
G'anim bo'lgan dushmanlarni bo'zlatar.  
Otasini Er edi, Erday bo'p o'tar,  
Otasining yurtin shunday bo'p tutar.*

“Er” istilohining ilk sharhi “Devonu lug'otit-turk” asarida ko'zga tashlanib, erlik – mardlik va jasurlik ekanligi aytiladi:



“Er” nomi sof turkiy so'z hisoblanib, ilk adabiy manbalarda asosiy obraz o'laroq ko'rinadi. Turkiylarning ilk davlatchilik hokimiyati hisoblangan Arshakiylar nomi aslida “er sak” ekanligi, milliy qahramon Alp Er To'ng'a shu nom bilan sharaflangan bu so'zning tarixi ancha qadimiy ekanligiga ishora qiladi. Ilk yozma yodgorliklardan hisoblangan “Kul tigin” bitigtoshidagi “Onam xotunning baxtligi uchun eng kichik avlodim Kul tigin Er otini olmishdir”, degan satrlar turkiy adabiyotda er nomini olish ulug' in'om va muzaffariyat ekanligiga aniqlik kiritadi. Ozarbayjon xalq dostoni “Dada Qo'rquq kitobi”da yozilishicha, qadimgi turkiylarda odam biror dushmanini mag'lub qilmaguncha unga ism berilmagan ekan. Turkiylarda “er otim” birikmasi bilagi kuch-quvvatga to'lgan, ulkan maqsadlar ortidan borib, xalq koriga yarash uchun harakat qiladigan insonlarning sifati hisoblangan. Qadim turkiylarda er – kuch-quvvat timsoli ekanligi bilan bog'liq maqollar ham mavjud bo'lgan: “Er quti belin, suv quti terin” (Er quti qo'rqqaslikda, suv quti cho'ngurlikda). Bobolarimiz “er” nomidan shunchaki kishilarni atash uchun emas, ulug' insoniy fazilatlar sohibini nomlash uchun foydalanishgan. Misol uchun, xalq qo'shiqlarida “Bek Alpomish yetti yoshda er yetgan, kofirga qarab, to'qson tog' otgan” singari misralarning kuylanishi erlikning jasorat va ma'rifat bilan hosil qilinishini ko'rsatadi. Bilamizki, Hakimbek yetti yoshda bobosidan qolgan kamonni ko'tarib, el-u yurtini lol qoldiradi. Shundan so'ng unga Alpomish nomi beriladi. Lekin dostonida kamon voqeasidan keyin Boybo'ri va Hakimbekning ilm-u ma'rifatga oid bir suhbat keladiki, yosh alp erining ma'rifati qalb egasi ekanligi ham ayon bo'ladi. Alpomish otasining saxiylik va baxillik haqidagi savoliga: “Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy, agar joyi bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqt-bevaqt kishi bir mo'zortning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mo'zordagi odamlarning haqiga duo qilib o'tsa, bul ham saxiy, agar bunday qilmasa, baxil...”, deya javob beradi. Alpomish yetti yoshda diniy hamda dunyoviy bilimlarning zukko bilimdoni bo'lib ulgurgan edi. Umuman olganda, folklor namunalarida insoniyat orzu qilgan chin insonlar “er” deya ulug'langan. Shu boisdan Erali, Ero'g'li, Ersari singari qahramonlar haqida dostonlar kuylangan. Erlar yurtning chin himoyachilari, millat fidoyilari hisoblangan. Xalq maqollarida “er” va “el” nomlari yonma-yon kelib, “Erning ishi el bilan”, “Yaxshi ot erniki, er elniki”, “Er so'zi –

Olar ikki erlashdi (ular ikkisi mardlikda bahslashishdi). “Er” nomi qadim turkiylarda jasurlik va shijoat ramzi bo'lib, xolis an aytganda, bir erning bu xislatlardan mahrum bo'lishi tasavvurga sig'mas voqelik hisoblangan. Er haqidagi qadim tasavvurlar asrlar osha mukammallik hosil etib, er yigitning jo'mardlik sifatlari badiiy manbalarda aniq va yaqqol aks eta boshladi. “Qutadg'u bilig” asarida millat yukini ko'tarib, eldan keladigan jafoga vafo ila javob qiladigan, ahdda sobit turib, xoinklik keskin qarshi turadigan botirlar er deb ulug'lanisa, “Hibat ul-haqoyiq”da ezgu amalli insonlarning barchasi er nomi bilan ataldi. Yusuf Xos Hojib asari so'ngida bu olamda ishonish mumkin bo'lgan insonlar faqat erlar ekanligini aytar ekan, er va'dasi, aslida, odamiylik hukmi ekanligini nazarda tutadi:

*Apan andqa erse eminlik butunlik,  
Bu and tutg'uch kim an er atay.*

Mazmuni: Agar ishonchilik ont bilan bo'ladigan bo'lsa, bu va'dani tutuvchini er deb atayman.

E'tiborlisi, “Turklar va mo'g'ullarning qadimgi dini” kitobida “Turkchada er nomining berilishi, albatta, ruhning butunlikka, mukammallikka erishganini belgilash uchundir. Bu ot aslida ruhning o'zidir” ta'ri fi keltiriladi. Demak, er turkiylarda faqat er kishi emas, komil insonlar nomi ham sanalgan. Hazrat Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida valiy ayollarni “Er martabasiga yetgan orifa ayollar” deb ta'riflashi bu nomning “jinsdan-da oliy va beqiyos irodiy iqtidor” ekanligini ko'rsatadi. Bilamizki, komillik nafsoniy istaklarga qarshi turib, o'zini isloh qilish hamda Alloh buyurgan qonun-qoidalarga to'liq rioya etmoq bilan belgilangan. O'zbek mumtoz adabiyotidagi “er” aynan shundaydir:

*Nafsin o'tlurgon er bo'lur g'oziyi,  
Er ersang hosil et aning bekin ot.*

Erdagi jasorat va qat'iyatning asosi dunyo havaslaridan o'zini forig' etib, ruhoni hurriyatga yetgani bilan belgilanadi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul “er” so'zining “erk” lafzidan paydo bo'lganini, erkdan mahrum, hurlikdan yiroq kimsalar ozod shaxs bo'lolmasligini aytadi. To'g'ri, tilshunoslik ilmda “er” va “erk” so'zlarining lug'aviy yaqinligi qayd qilinmagan. Biroq Turkiston piri Ahmad Yassaviy “Er ul turur, qulman teryu qulluq qilsa, qo'rqub Qahhor otidin ul farmon tutsa”, deya “er” uchun ma'naviy hurriyat Haqqa qullikdan bosh-

lanishini nazarda tutadi. Er uchun bandalar shafqatiga bo'yin egish, raqib qarshisida bosh egish uyat hamda isnod hisoblangan. Temuriy shahzoda Abubakr Mirzo:

*Er kerak o'rtansa, yonsa yolina,  
Yora deb yotsa otining yolina.  
It o'lumi birla o'lsa yaxshiroq,  
Er otonib dushmaniga yolina, –*

der ekan, erlik turkiylar uchun or-nomus masalasi bo'lganini qayd etadi. Birinchi misrada yolina – olov, alanga ma'nosida kelgan. Er shunday mardki, o'tda yonib, jarohat olganda, Yaratgandan madad so'rab, otining yoliga bosh qo'yadi, aslo dushmaniga iltijo qilib, madad tilamaydi, jonini omon saqlash uchun uning poyiga yiqilmaydi. Er jismolan va ma'nalan mukammal shaxs, uning uchun oriyat, g'urur tuyg'ulari har narsadan ustun. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida butun bir maqolatning “er bila nomard” ta'rif-u tavsifiga bag'ishlanishi jamiyat ravnaqida erlikning qanday ahmiyatiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ulug' shoir erni “jonfido muhabbatkash” deb atab, uning nafsinini yengib, el-u yurti uchun jonini fido qilishi, jang maydonida sobit tura bilib, har ne sinov kelsa, millat himoyasi uchun o'tlanishi, eng muhimi, xizmatlarini aslo minnat qilmasdan, sir saqlay bilishi haqida gapiradi. Umuman olganda, hazrat Navoiy nazdida, er – dunyo hoy-u havaslaridan poklanib, ulug' martabaga yetgan zotlar nomidir:

*Uldur erkim, salb etib nafsoniyat,  
G'olib etgay zotig'a ruhoniyat.  
Har kishida bu sharaf bizzot erur,  
Ul kishi pok-u sharif avqot erur.*

Yuqoridagi misollar qadimgi turkiy va mumtoz adabiyot doirasida bayon qilinadi. Bu bilan er e'tirofi o'tmishda qolib ketdi, degan tasavvur paydo bo'lishi kerak emas. Xususan, XX asr adabiyotida, xoh nazmda bo'lsin, xoh nasrda, mazkur obraz aslo qimmatini yo'qotmadi. Bu davr adabiy namunalarida ham “er” – el-yurtiga suyanib, fidoyi va jo'mard yigitlar nomi bo'lib qoldi. O'zbekning “Qutlug' qon” romanida Yo'ichi rahmdil, mazlumdan ko'magini ayamaydigan, jamiki odamzodga shafqat va himmat nazari bilan bo'qadigan qahramondir. Hatto, Mirzakarimboy uni “ulug'vor va vazmin”, “jasorat va g'urur” sohibi, deya e'tirof qiladi. Yo'ichi o'limidan so'ng uning “...mard yigit edi, nomusli yigit edi... er o'g'li – er edi, u boshqa olamdan edi” deb xotirlanishi fikrimizni quvvatlaydi. Yoki bo'lmasa, Shavkat Rahmon she'riyatida erlar Turon, Turkistonning asl umidlari, vatanda yongan chiroqlar ekanligi ko'rsatib beriladi:

*Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,  
bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,  
bormi bul tufroqda o'zligin izlab,  
osmonu falakka yetgan bolalar.*

*Bor bo'lsa, alarga yetkarib qo'ying,  
Bir boshga bir o'lim demagan ermas,  
shahidlar o'lmaydi  
bir qarab to'qaring:  
Yovga ters qaragan musulmon emas...*

Bu misralar bir namuna xolos, bunday misollarni yetarlicha ko'rsatish va tahlil qilish mumkin. Ayon bo'ldiki, “er” asl turkiy so'z va yetuk shaxsiyat egalari berilgan nomdir. Hozirgi nutqimizda faol bo'lgan “erkak” so'zi esa asrlar davomida insonning emas, hayvonlar jinsining nomi sifatida qo'llanilgan. “Devonu lug'otit-turk”da “erkak – har qanday hayvon va parrandaning erkagi” deb keltirilsa, Alibek Rustamov tadqiqotida “er” so'zi insonga, “erkak” so'zi hayvonga nisbatan ishlatilgan”i aytiladi. Biz bu bilan ikki so'z orasidagi farqni keskin xulosalab, faqat “er” so'zidan foydalanish xususida qaror berishdan yiroqmiz. Ammo “er” nomining tarixiy quvvati, mazmun-mohiyat qat'iyligini biroq bo'lsa-da, yoritishni lozim topdikki, millatning chin egalari bo'lgan er yigitlar aslida kim ekanligini, bu e'tirofga loyiq bo'lish uchun doimo g'ayrat qilish shartligini anglasin. Zotan, er kishi tom ma'noda kuch-quvvat, shijoat, aql-idrok hamda ilm-u ma'rifat sohibi bo'lmog'i lozim va bu olam muvozanati uchun juda muhimdir. Shu sababdan insoniyatga komillik yo'lini ko'rsatgan umid va taskin olami hisoblanmish badiiy adabiyotda “er” nomi eng asosiy obrazga aylangan.

Nasiba JO'RAQULOVA

## BEDOR O'Y

Soch-soqli oqargan, hayotning achchiq-chuchugiga rosa to'ygan, sinovlarning baridan iymoni mustahkamlangan holda o'tgan kishilardan biri sifatida so'nggi haftalarda internetning o'zbek kesimini band qilib kelayotgan shov-shuh bahonasida ayrim fikrlarimni bildirishni lozim topdim. Balki, kimgadir nafi tegib qolar.

## AVLODLARGA IBRAT BO'LMOQ SAODATI



O'zbek afkor ommasini mamlakatning taqdiri yoki Yer yuzida hayotga xavf solayotgan voqealar emas, jamiyat oldida turgan o'tkir muammolar emas, taniqli shaxslarning mashhurliqi sabablari ham emas, faqatgina ularning shaxsiy hayoti bilan bog'liq shov-shuhviy gaplar ko'proq qiziqtiradi.

Doim shunday bo'lganmi? Yo'q. Jadidlar harakati faollashganda xalqimiz dunyoqarashida kuchli evrilish boshlangan edi. Agar xalqda olomonlik xususiyati hamon g'olib kelayotgan bo'lsa, bunga “tish-timoqsiz” matbuot va markaziy televideniye kanallarini asosiy sababchi deb bilaman. Do'ppini boshdan olib o'ylab ko'raylik, azizlar.

Kapitalizm odamlarni boylik va shonshuhrat ketidan quvishga undaydi, shunga sharoit yaratadi. Hatto “chopmaysanmi?” deya qamchilaydi. Natijada chindan o'ta boylar va mashhurlar ko'payadi. Bu umuman olganda yaxshi. Faqat shuni e'tibordan qochirmaslik lozimki, aynan boylik, qudrat, shonshuhrat – shaytonni ko'proq qiziqtiradigan omillardir. Unutmaylikki, boylik bilan shaytonga malaylik qilish ham, Rahmonga intilish ham mumkin. Kuch-qudrat bilan la'nat ham, rahmat ham eshitsa bo'ladi. Shonshuhrat bilan avlodlarga ulug' ibrat qoldirish yoki aksincha, ular o'rtasida nizoga sababchi bo'lish ham mumkin.

Har bir inson boshiga osmon uzilib tushayotgan bo'lsa ham, nafrati olamni bossa ham, boshqaning onasini haqorat qilmasin. Chunki bu Allohga ma'qul emas, Allohning farishtalari onaga haqoratni haqoratlovchining o'ziga qarshisini unutmamak kerak.

Otami yo ona qoldirayotgan moddiy yoki jiodiy merosi katta bo'lsa, o'lim kelmasidan

burun meros masalasini adolatli hal qilib qo'yimg'i lozim.

Boylik, kuch-qudrat, shonshuhrat sohiblari, unutmangki, bularning baridan ahil, bir-biriga mehr-oqibatli, tirikligida ham, vafot etganidan so'ng ham ota-ona duosiga, xalqning tasannosiga sazovor bo'ladigan farzandlar tarbiyalash million marta yaxshiroqdir.

Pedagogikada ham, targ'ibot-tashviqotda ham, dinda ham ming arava pand-nasihati, quruq gap, chiroyli va'z bir soniyalik ijobiy ibratchalik kuchga ega emas. Aksincha, ibrat salbiy bo'lsa, pand-nasihati, targ'ibot-tashviqot-u va'z aks natija beradi – salbiy ibratning kasofatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Internetning “og'ziga-ku elak” tutib bo'lmas. Ammo manfaat deya xalqning ma'naviyatiga, yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga putur yetkazayotgan ommaviy axborot vositalarining rahbarlari aslida xalqning dushmanidir.

Bugun farovon yashayotgan xalqlar bunga yo oildagi tarbiya tufayli (misol: Yaponiya), yo maktab ta'limi tufayli (Finlandiya), yo kattalarning ibrat tufayli (Shveysariya), yo davlatning adolat to'g'risida qayg'urishi tufayli (Singapur) erishgan. Oila tarbiya bermasa, maktab ta'lim bermasa, kattalar ijobiy ibrat bermasa, davlat adolat to'g'risida qayg'urmasa, bunday millatning kelajagi voy.

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” (Abulla Avloniy). Bugun biz uchun ta'lim-tarbiya sifati yo hayot – yo mamot, dissertatsiya yoqlayotganlar va yoqlatuvchilarning haloligi yo najot – yo halokat, ta'lim tizimi mutasaddilarning haloligi yo saodat – yo falokat masalasidir.

Abdulla A'ZAM

## TARMOQLARDA NIMA GAP?

## MUALLIFLIK HUQUQI HAQIDA...

Yaqinda qirg'izlarning “Jannat onalar oyog'i ostida” badiiy filmi o'g'rincha telegram kanallarida tarqatishiga qarshi keng jamoatchilik o'rinli tarzda e'tiroz bildirdi. Mualliflik huquqi himoya qilinishi kerak.

Ammo Sherali Jo'rayev qo'shiqlariga kelganda nima uchundir merosxo'rlarining haqli e'tiroziga qarshi borildi va “Sherali Jo'rayev qo'shiqlari xalq mulki bo'lishi kerak”, deya fikrlar bildirildi.

O'zbekistonda “Mualliflik huquqlari” degan tushuncha keng targ'ib qilinishi kerak. Mualliflik huquqlari haqida tushunchaga ega bo'lmay turib fikr bildirish o'rinsiz deb o'ylayman.

Oddiy misol, qozoq kinochilari “Temir xotin”ning qozoqcha variantini suratga olishmoqchi bo'lib, Toshkentga – Yozuvchilar uyushmasiga kelishgan, u yerdan adibning manzili olib, oilasidan ruxsat so'rashgan. Mana buni mualliflik huquqlariga hurmat ko'rsatish deyiladi.

Deylik, ulug' adiblarimizning kitoblari nashr qilinadigan bo'lsa, albatta, ularning merosxo'rlaridan ruxsat olinishi va ularga honorat to'lanishi shart. Xuddi shunday, ulug' san'atkorlarning (deylik, Sherali Jo'rayev, Komiljon Otaniyozov, Nuriddin Haydarov, Oxunjon Madaliev, Muhriddin Xoliqov va boshqalar) qo'shiqlari – xalq mulki, ammo merosxo'rlari tirik. Ulardan ruxsat olish shart. (Ruxsat olish uchun ma'lum miqdorda haq to'lanadi. To'yarga falon dollarga boradigan xonanda-yu, otarchilar uchun bu arzimas pulligini 1-sinf o'quvchisi ham biladi).



Ha, aytmoqchi, O'zbekistonning Butunjahon savdo tashkilotiga kirishi shartlaridan eng asosiylaridan biri aynan mualliflik huquqlariga rioya etish hisoblanadi.

Aytmoqchimanki, “qo'shiqlarga qorovul” iborasiga kinoyasiz yondashish kerak.

Yana bir gap. Sherali Jo'rayev qo'shiqlari – boshqa san'atkorlar tomonidan aytilsa ham, aytilmas ham umrbodiy qo'shiqlar. Hozirgi voqealar o'tkinchi, Sherali Jo'rayev ulug' san'atkor sifatida o'zbek san'ati osmonida yulduz emas, quyosh bo'lib qoladi.

Gapiraman desa gap ko'p. Hozir tirik yurgan ayrim ulug' san'atkorlarimiz ham farishta emas. Marhumlarning emas, tiriklarning ham oilasi sirlarini yoritla digan mard bormi?

Sharofiddin TO'LAGANOV



15-MAY — BOTU TUG'ILGAN KUN

O'zbek adabiyotining dunyodagi boshqa xalqlar adabiyotiga muvaffiq kirib borishida, tabiiyki, fidoyi ziyolilar, xususan, tarjimon va adabiyotshunoslarning xizmatiga hamma zamonlarda ehtiyoj seziladi. Bugungi adabiy hayotga nazar tashlansa, ko'plab turk adiblarining asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinganiga guvoh bo'lamiz. Ikki qardosh adabiyot muammolariga doir ayrim qiyosiy tadqiqotlar ham maydonga keldi. Ayni chog'da, mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari turk tiliga tarjima qilinib, qardoshlarimizning muhtasham kutubxonalarida turkiyalik adabiyot muhiblarining kitob javonidan o'rin olayotgani sir emas. Bu yo'lda ko'plab ma'naviyat zahmatkashlari jonbozlik ko'rsatib keladi. Shulardan biri, o'n yillardan beri taniganim adabiyotshunos olim, tarjimon Vali Savash Yelodir.

Vali Savash muallim zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari, xususan, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Xayriddin Sultonov, Nazar Eshonqul va boshqa adiblarning asarlarini turk tiliga o'girdi; nashr qildirdi. Uning tashabbusi bilan Turkiyada "O'zbek adabiyotidan tanlangan hikoyalar" to'plami bir necha marta bosildi. Professor

## QARDOSHNING QADRI

Zaynabiddin Abdirashidov bilan birga o'zbek jadid adabiyoti namunalari turk o'quvchilarga taqdim etdi.

Aslida Vali Savash muallimning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bevosita zamonaviy o'zbek adabiyoti bilan bog'liq. O'z vaqtida "Erkin Vohidov she'rilarida til va uslub" mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasini himoya qildi. Bir muddat Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida talabalarga saboq berdi. O'sha davrda o'zbekistonlik hamkasblari bilan bamaslahat taniqli turk adiblarining hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qilib ommalashtirdi.

Doktor Vali Savash bugun Anqaradagi nafuzli Hoji Bayram Vali universitetida aynan "Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar" bo'limida mudir vazifasida ishlaydi. Bo'limda o'zbek adabiyotiga bog'liq ilmiy mavzularni muhokama etadigan yosh tadqiqotchilarga rahbarlik qiladi, beminnat maslahat va amaliy yordam beradi.

Vali Savash Yelok filologiyaga oid ko'plab xalqaro anjumanlarda biz bilan hamkorlik qiladi; jiddiy qiyosiy-tipologik yo'sindagi ma'ruzalari bilan qatnashadi. Bu hol olimning o'zbek-turk

adabiy aloqalarida faol ekanidan darak beradi.

Umuman olganda, bugungi adabiy aloqalar rivojida, milliy adabiyotimizning Turkiyada keng targ'ib etilishida Vali Savash Yelokning xizmatlari katta. Yaqinda u O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy a'zosi bo'ldi. "Jadid" tahririyati a'zolari qadrdon qardoshimiz Vali Savash muallimni tabriklaydi va kelgusidagi hamkorlik rejalariga omad tilaydi.

Quyida olimning o'zbek shoiri Botu to'g'risidagi yirik maqolasining bir qismi gazetxonlarga taqdim etilmoqda.



K.BAHODIR

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).  
**Boqixojayev Umarxo'ja** — 1896-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotning sobiq a'zosi. 1935-yili sudlanib O'zSSR Jinoyat kodeksining 212-moddasi bilan 8 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg'uloti bo'lmagan. O'zSSR IXX Buxoro sektorining 11760-sonli ishi bo'yicha u doimiy ravishda aksilinqilobiy, ig'vogarlik targ'iboti olib borganlik va ittihadchilarning qator aksilinqilobiy yig'ilishlarida ishtirok etganlikda ayblangan. 1931-yili Eronga tillo sifatida 5000 tuman yuborgani uchun 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddati 1937-yil 20-oktyabrden hisoblangan.

## QATAG'ON QURBONLARI

**Do'stmuhammedov Mashrab** — 1898-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1933-yili 8 yil ozodlikdan mahrum qilingan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti sobiq a'zosi. Akbar Ismoilov, Shomansur Alixo'jayev va boshqalar bilan aloqada bo'lgan, doimiy ravishda sovetlarga qarshi qo'poruvchilik ishlarini olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

**Nizomboyev Inog'omjon** — 1901-yili Namangan shahrida tug'ilgan. 1931-yili 5 yil muddatga qamalgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti Namangan filiali rahbari bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda sabzavot tayyorlov punkti mudiri vazifasida ishlagan. Sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borib, trotskiy-chilar qatag'on qilinishiga hamdardlik bildirgan. Aksilinqilobiy yig'irlarda qatnashib, josuslar bilan bog'langanligida ayblanib, otuvga hukm qilingan.

**Burxonxo'jayev A'zamxo'ja** — 1893-yil Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919-yildan Eserlar partiyasida bo'lgan. Toshkent isyonida sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan. 1921-1929-yillari "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olingunga qadar O'zSSR Moliya xalq komissarligi xo'jalik boshqarmasi boshlig'i vazifasida ishlagan. Partiya va sovet hokimiyatiga, siyosatga qarshi muntazam targ'ibot olib borganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

**Muhiddin Jaloil** — 1890-yili Ordjonikidze rayoni Nug'oy qo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. 1927-yilgacha "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda kolxozda ishlagan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy, trotskiy-chilik targ'iboti olib borib, SSSRdagi ocharchilik to'g'risida ig'vo tarqatganlikda ayblangan. 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

**Yoqubov Ilhom Orifjonovich** — 1891-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgani uchun 1937-yili VKP(b) safidan o'chirilgan. Tursunxo'jayev, Islomov, Yoqubov va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lganlikda ayblanib, 1937-yil 14-sentyabrden mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

**Kupuboyev Nasriddin** — 1890-yili Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Hibsga olingan vaqtda ishsiz bo'lgan. 1920-yildan 1924-yilgacha millatchi, "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. Muntazam aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 20-sentyabrden hisoblangan.

**Kamolov Mulla Mardam** — 1884-yili O'zSSR Kattaqo'rg'on rayoni Yormatqo'zi qishlog'ida tug'ilgan. 1933-yilda 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan. 1936-yilgacha "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Sovet hokimiyatiga qarshi murosasiz dushman sifatida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblanib, 1937-yili 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Jazo muddati 19-sentyabrden hisoblangan.

**Abdusoatov Qo'zi Haydarbek** — 1875-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. O'tmishda volost boshqaruvchisi bo'lgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti faollaridan biri. Hibsga olingan paytda aniq mashg'uloti bo'lmagan. O'z atrofiga sobiq aksilinqilobiy tashkilotchilarni to'plab yig'inlar o'tkazgan, targ'ibot olib borgan, sovet hokimiyatiga qarshi kurashishga da'vat qilganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

**Husainov Kamoliddin** — 1880-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Chor Rossiyasi davrida mahalliy politsiya boshlig'i vazifasida ishlagan. 1916-yildagi Jizzax qo'zg'olonini bostirishda ishtirok etgan. Hibsga olingan vaqtda hech qayerda ishlamagan. 1920-1924-yillari "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Sovet hukumatga qarshi yig'inlarda ishtirok etganlikda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

**Rahmonberdiyev Topiboldi** — 1884-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. 1919-1926-yillari "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda O'zkonstvertrest kontorasi kotibi vazifasida ishlagan. O'z uyida aksilinqilobiy tashkilot tuzganlikda ayblanib, 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 12-sentyabrden hisoblangan.

**O'rinxojayev Mirzaxo'ja** — 1897-yili Jomboy rayoni Jomboy qishlog'ida tug'ilgan. 1921-1926-yillari "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining faol a'zosi bo'lgan. Qamoqqa olingan paytda meva-sabzavot tajriba stansiyasi direktori vazifasida ishlagan. O'z uyida yig'inlar o'tkazib, aksilinqilobiy targ'ibot qilganlikda ayblanib, 8 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-sentyabrden hisoblangan.

**Abdug'afvorov Abdauziz** — 1891-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Volost boshqaruvchisining sobiq kotibi vazifasida ishlagan. 1926-yilga qadar "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining faol a'zosi bo'lgan. Aksilinqilobchi Abdusattorov bilan aloqada bo'lib, o'z uyida sovet hukumatiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-sentyabrden hisoblangan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**  
tarix fanlari doktori,  
professor,

**Nigoraxon AKBAROVA,**  
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).



## YORUG' KUNLAR KUYCHISI

Turli janrlarda ijod qilgan Mahmud Hodi Alisher Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy va Furqat kabi mumtoz shoirlarning asarlarini o'qib, ulardan ta'sirlanadi va hazrat Navoiyga ergashib she'rilar yozadi:

Bir zamonlar elimiz  
Qorong'uda qolmishdi.  
Bu cho'qlarda tilimiz  
Yorliq ism o'lmishdi...  
"Bu tushuncha yangilishdir,  
O'z tilini sevmaslik  
Eng yaramas bir ishdir.  
Biz yashamoq istasak,  
Tilimizni sevyalik.  
Bizning tili yaramas,  
Yorliq, degan kishilar  
Yangilishlar, shubhasiz.  
Bizning til ham boy tildir",  
Dedi ongli bir kishi...  
"U kishi kim?" desangiz,  
Aytib beray, o'rtoqlar.  
U kishini bilsangiz,  
Buyuk shoir Navoiy.  
Shuning uchun, bolalar,  
Navoiyni sevyalik.  
Navoiyning otini  
Oltin bilan yozaylik.

("Navoiy" she'ridan)

Mahmud Hodi Moskvada yashagan vaqtlarida Fitrat va Cho'pon qatorida yana bir "ustoz"ning borligi oshkor bo'ladi. Ijodining ikkinchi davrida shakllangan bu "ustoz" yangi bir davr va siyosiy tuzumning quruvchisi bo'lishini va da bergan, buni amalga oshirish yo'lida tezkor qadamlar bilan harakat qilgan siyosiy idoradan boshqasi emas. Aslida, bu ustozlarning har biri yosh shoirni o'z yo'lidan yurdirishga harakat qilishardi. Bu shahardagi tahsil yillarida O'zbekistondagi adabiy hayotdan va muhitdan uzilmagan Mahmud Hodi Toshkentdagi do'stlari bilan aloqa qilishda, hayot va adabiyotda o'xshash nuqtalardan qaraydigan fikrdoshlari bilan yozishida, turli gazeta va jurnallarning muharrirlari bilan munosabat olib borishda davom etadi. Bu yillarda uning she'rlari bilan bir qatorda adabiyot, san'at va yangi ijtimoiy tuzum bilan bog'liq maqolalari "Inqilob", "O'zgarishchi yoshlar", "Maorif va o'qituvchi" kabi nashrlarda bosilib turadi. Uning she'rlari 1924-yili "Go'zal yozg'ichlar" to'plamida Abdulla Qodiriy, Oybek, Oltoy kabi adiblarning asarlari bilan birga nashr etiladi.

1920-yillardan keyin butun o'lkada bo'lgani kabi O'zbekistonda ham jadal o'zgarishlar yuz beradi. Ular yashagan davr Mahmud Hodi va u kabi yoshlarni faqat yangilik tarafdori qilmay, balki ayni paytda butun mamlakat bo'ylab o'rnatilgan tuzum

himoyachisi va notig'i bo'lish vazifasini ham ularning zimmasiga yuklaydi. Shu munosabat bilan u o'z asarlari orqali yangiliklarni ham yoshlar hayotiga olib kirish, ularga o'z xohish-istaklari, orzu-umidlarini singdirish va shu yo'l bilan sovetlarning g'alaba qilishiga o'z hissasini qo'shish g'oyasini amalga oshiradi. Bu yillarda qaysi fikr va tuyg'ulari bilan bu kurashda bo'lganligi, uning adabiy qarashlari va yo'nalishini tushunishda quyidagi misralar yordam beradi:

Ko'nglim yosh, ruhim yosh, kuchim yosh,  
Yosh yo'llar, yosh kuchlar izlayman.  
Ortga tortganga hadyam — tosh,  
Har choq men ilgari undayman.

("Umid so'zlari" she'ridan)

Yangi tuzumning ashaddiy himoyachisi va uning kurashchisi Hodi o'ziga davrdosh bo'lgan Oybekning "Ko'ngil naylari" kitobiga yozgan muqaddimasida yosh shoirni tabriklaydi; unga o'z ijodini yanada kamol toptirishi uchun bir qancha maslahatlar beradi. Shuningdek, bu asar munosabati bilan davr shoir va yozuvchilarga asarlarida "buyuk yutuq va zafarlarining o'quvchilariga xushxabar berishlarini" xohlaydi; shoirlarni "inqilobiy she'rilar yozishga" da'vat etadi.

1925-yilda Hodiyning "Umid uchqunlari" nomli birinchi she'riy kitobi nashr etildi. Bundagi she'rlarida inqilob va uni amalga oshirgan ruhga e'tibor qaratadi. Yangi tuzum odamlari olib kelishga va da qilgan yangi hayotni o'rnatish uchun kurashda qatnashishga taklif qiladi. O'zini bu jarayonning askari sifatida ko'rgan Botu o'z tutumini she'r va maqolalarida bayon qiladi. Shoir o'zini shunga yarasha shakllantirganini va o'zida ham shunday ruh borigini aytadi. She'rlarida, ayniqsa, insoniyat boshiga musibat va azob-uqubat keltirayotgan urushga e'tibor qaratadi. Yozganlarida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot beruvchi jarayondan ko'ra, oddiy kuzatishlardan chiqur hayotiy ma'nolarni olishga intiladi.

Shoirning ikkinchi kitobi — "To'lqin tovushlari" — dagi she'rlarida yangi hayotni shakllantirish, o'zi xohlagan yangi inson tipi va insoniy munosabatlarni aks ettirishga harakat qiladi. U dunyodagi turli voqealarni she'rlari uchun mavzu qilib oladi. She'rlarida zamon farzandlarining ertangi kunlari yorug' va go'zal bo'lishiga, xalqning farovon va baxtli yashashiga samimiy ishonch bildiradi:

"Men-da sen kabi sho'x, sen kabi mag'rur,  
Meni "menlik"ka asir eta olmas bu g'urur.

Chunki men  
Olganman  
Bu g'ururimni  
Bu sururimni  
Shonli vulqondan,

Tengsiz isyondan,  
Eski dunyo qagshagan ondan.  
Mening ko'nglimda-da po'rtanalar,  
Po'rtanalar!  
Chunki po'rtana mendir, men-da po'rtanaman!"

("Kaspiy dengizga" she'ridan)

Uning she'rlarida yo'l, furug', kun, bahor, tong, dengiz, alanga, sahar so'zlari turlicha ma'nolarda qo'llanadi. U shu so'zlar bilan xalq kurashi natijasida qo'lga kiritilgan erkinlik, o'rnatilgan yangi tuzum va hayot, yangi bir jamiyatni tasvirlaydi. Bu uning oldida turgan yorug' yo'l haqida hikoya qiladi. Uning she'rlarida kurash natijasida erishilgan narsalardan faxrlanish va hayotga umid bilan qarash; umidsizlik, muammo, turg'unlik va befarqlikni ma'qullamaydigan yondashuv mavjud. Nima qilishni xohlayotganingizni anglash, "ko'z yoshlari" bilan emas, balki faqat maqsad va idealarni beland ovozda aytish; e'tiqod, g'ayrat va shijoat bilan mehnat qilish orqaligina bularga erishiladi, deb hisoblaydi.

Mahmud Hodi asarlarida o'z vatandagi baxtli va tinch yashash maqsadini kuyladi. Adolat va haqiqatni mohirona ifodalagan, millatining ruhini yuksaltirgan she'rilar yozishiga intiladi. U mas'uliyati ziyoli sifatida o'zbeklar uchun kurashning bayroqdoriga aylandi. Shoirning adabiyot va san'atga qiziqqanligi, ishtiyoqi ham, xalqiga xizmat qilishga intilishi ham shu maqsadda edi...

Butun mamlakat bo'ylab tashkil etilgan tizimning yaratuvchisi, asoschisi, himoyachisi va ko'zga ko'ringan vakili bo'lish yukini ham zimmasiga oldi. O'z asarlari bilan yangilik jirochisi bo'lgan Mahmud Hodi yoshlar hayotiga kirib borish, ularga o'z xohish-istaklari, orzu-umidlarini singdirishga intildi. Yozgan she'rlari, dostonlari, hikoyalari va maqolalarida yangi inson obrazini va o'rnatilgan yangi tuzum bilan birga o'zi urzu qilgan insonparvarlikni ham shakllantirishni istadi. Millatining dardini ifodalashga harakat qildi. Kelajak avlodni yorug' kunlar kutayotgani, hali hayotining bundan ham go'zal bo'lishini, odamlar farovon va baxtli yashashini ta'kidladi. Shoirning o'zi bularga chin dildan ishonadi. Shuning uchun ham u "inqilobga qarshi va millatchilikda ayblangan vaqtlarida o'ziga berilgan jazoga bo'ysunib, mehnat lagerlarida va qamoqxonalarda: "Ozodlikka qaytaman", degan umidda yorug' kelajakni kutdi. Shukrim, kun kelib o'sha yorug' tonglar otdi.

**Vali Savash YELOK,**  
Turkiyadagi Hoji Bayram Vali universiteti  
professori

Turkchadan Abdimurod Tilavov tarjimasida.

TABDIL



O'rtog' Oybekning yigirma yetti she'ridan iborat asari bo'lib, O'zbekiston davlat nashriyoti tomonidan 1927 nchi yilda bosilgan.

## "Sezgilar"

(Shoirlar to'plamidan 4-bo'lak)

Kitobning o'zi — shoirning "So'ngi hushyorlik" sarlavhasi bilan boshlanib, birinchi qarashda Oybekning "oltin qadahlar"dan bezgani, uning endi hushyor bo'lishi va eskilikdan nafrat etgani anglashiladi. Uning ketidan kelgan she'rilar — bu tushunchada yangilishmaganimizni isbot qildi. Aytib bo'ladikim, 1926 nchi yilda yozgan she'rlarida o'rtoq Oybek proletariat shoiri bo'lishga urung'on

va bu urunishga muvaffaq bo'la ham boshlagandir. Bu o'zgarish, albatta, yosh shoirning kelgusida muvaffaqiyatli qadamlar tashlashiga yo'l ochganligini ko'rsatadi.

Bundagi she'rlarning badiiy, san'at jihatidan bo'lgan qiymati ustida to'xtalmoq istamadim. Negakim, bu masalaning o'zi bu kitobga taqriz yozishdan uzoq bo'lib, to'ppa-to'g'ri shoirga baho berish masalasidir va

buning uchun vazifa boshqalashib ketadi. Faqat Oybek o'rtoq o'zining she'rlarida hurlar, malaklarga o'rin bermasa, "yetti qavat osmon" kabi yangilish ta'birlarni kirgizmasa, "holi taboh" singari yot tarkiblardan butunlay qo'l tortsa yaxshi bo'lar edi. Bu tilimizning qabulga tutishiga ishonamiz. Negakim, butun kitobda uch joydagina bularni uchratdik; she'r havaskor va mutolaachilarning bu kitobni olib o'qishlarini tavsiya qilamiz.

**Said AHRORIY**  
"Maorif va o'qituvchi"  
jurnalining  
1927-yil 4-sonidan  
B.Muhammad Nur tayyorladi.



## YANGICHA TAFAKKUR

O'ylashimcha, ayrim tengdoshlarim shunchaki bakalvriat va magistratura imtihonlarini topshirib olish, yana boshqalari chet elda o'qish yoki ishlash, ba'zilar esa oylik maoshiga qo'shimcha ustamaga ega bo'lish ilinjida xorijiy tillarni o'rganishga harakat qilishadi. Aslida, buning yomon tomoni yo'q. Xorijiy tillarni o'rganish juda qiziq va foydali jarayon bo'lgani uchun men bu borada o'z qarashlarim bilan o'rtoqlashgim keldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining mashhur da'vatini maqola sarlavhasiga chiqarganim ham bejiz emas. Zotan, ul zot "Oyina" jurnalida e'lon qilingan "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasida shunday deb yozgan edi: "Biz turkistoniyalarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdir. Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, "Masnaviy"dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamo'i zamoniyy asarini turkiy tarjimasidan lazzat oladur".

Bundan qariyb bir asr muqaddam ma'rifatparvar ajdodlarimizning ilm olish, til o'rganishga qilingan xitoblari hozirgi zamon ahli uchun ham dolzarbdir. Chet tillarni o'rganish orqali o'zga xalqlarning adabiyoti, madaniyati va urf-odatlari bilan ham yaqindan tanishish mumkin. Bu esa, o'z-o'zidan kishining dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlarini ravon qiladi. Shuningdek, til bilgan inson har qanday vaziyatda ham o'zining kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi, sha'ni va huquqini himoya qila oladi. Ayniqsa, hozirgi globalshuv davrida bu juda muhim masaladir.

Albatta, til o'rganish oson yumush emas, ayrim odamlar uchun bu jarayon judayam qiyin kechadi. Ba'zilar esa, hatto tug'ma til o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin. Ilmiiy tilda poliglott deb ataladigan bunday insonlar bir yoki ikki tilni o'zlashtirish bilan chegaralanib qolmaydi. "Poliglott" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan "ko'p til egasi" degan ma'noni bildiradi. Agar

# IKKI TIL EMAS, TO'RT TIL KERAK!

inson uch yoki undan ko'p tilni bilsa, u, albatta, poliglott hisoblanadi. Bunday insonlar taqdir o'ziga juda qisqa muddatlarda yangi tillarni o'zlashtirish qobiliyatini ato qilgani bilan faxrlansa arziydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, vengriyalik tarjimon va yozuvchi Ishtvan Dabi dunyo miqyosida eng ko'p til biladigan noyob iqtidor sohiblaridan biri hisoblangan. U oz emas, ko'p emas, naq 103 ta tilni bimalol amaliyotda qo'llay olgan va o'z davrining poliglottlari orasida faxriy o'rinni egallagan. Qizig'i, unga ana shu tillarni o'rganish uchun yigirma ikki yil kifoya qilgan ekan.

E'tiborli jihati, bizning buyuk ajdodlarimiz ham dunyo tillarini o'rganishga alohida e'tibor

qaratishgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Sharq mamlakatlarida "Sharq Arastusi" sifatida nom qozongan ulug' donishmand Abu Nasr Farobiy 70 ta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirgan.

Uchinchidan, va eng muhimi, bu jarayonda til o'rganuvchining ruhiy holati muhim ahamiyatga ega. Aniqrog' aytganda, katta zavq-shavq va ko'tarinkilik bilan o'zlashtirilgan ma'lumotlar uning xotirasida umrbod muhrlanib qoladi. Demak, til o'rganmoqqa jazm qilgan tengdoshlarimiz g'ayrat kamarini beliga mahkam bog'lab, g'ayrat-shijoatni zarracha susaytmasligi zarur. Ana shunda, albatta, ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Men ham ingliz tilini mukammal o'rganishga harakat qilayapman. Bir kuni metroga chipta olish uchun navbat kutib turganimda hindistonlik ikki mehmon sotuvchiga ingliz tilida murojaat qilib qoldi. U hech narsaga tushunmay yelka qisdi. Shunda o'zimcha ularga tilmoqlik qildim. Mehmonlar ham, chipta sotuvchi ayol ham mening ko'magimdan mamnun bo'lishdi. Arzimasdek tuyulgan bu voqea menga o'zgacha ta'sir qildi. Ko'nglimdan "bekorga til o'rganmayotgan ekanman" degan fikr kechib, qarorim yanada qat'iylandi.

Sir emas, ko'pchilik yurtdoshlarimiz chet ellarga borib, mo'may pul ish-



yo'zuv va misollar orqali mustahkamlash o'rindir. Har kuni 15-30 daqiqa vaqtni o'rganilayotgan tilning grammatik qoidalarini bilan tanishishga, yana shuncha vaqtni yod olingan qoidalarini amalda qo'llashga sarflash zarur. Shuningdek, o'sha tildagi kitoblardan 3-5 sahifalik matnini ma'nosini tushungan holda o'qishni ham kanda qilmaslik lozim.

Uchinchidan, va eng muhimi, bu jarayonda til o'rganuvchining ruhiy holati muhim ahamiyatga ega. Aniqrog' aytganda, katta zavq-shavq va ko'tarinkilik bilan o'zlashtirilgan ma'lumotlar uning xotirasida umrbod muhrlanib qoladi. Demak, til o'rganmoqqa jazm qilgan tengdoshlarimiz g'ayrat kamarini beliga mahkam bog'lab, g'ayrat-shijoatni zarracha susaytmasligi zarur. Ana shunda, albatta, ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Men ham ingliz tilini mukammal o'rganishga harakat qilayapman. Bir kuni metroga chipta olish uchun navbat kutib turganimda hindistonlik ikki mehmon sotuvchiga ingliz tilida murojaat qilib qoldi. U hech narsaga tushunmay yelka qisdi. Shunda o'zimcha ularga tilmoqlik qildim. Mehmonlar ham, chipta sotuvchi ayol ham mening ko'magimdan mamnun bo'lishdi. Arzimasdek tuyulgan bu voqea menga o'zgacha ta'sir qildi. Ko'nglimdan "bekorga til o'rganmayotgan ekanman" degan fikr kechib, qarorim yanada qat'iylandi.

Sir emas, ko'pchilik yurtdoshlarimiz chet ellarga borib, mo'may pul ish-

lashni orzu qiladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarini afsonaviy Susambil o'lkasiga mengzab, nima qilib bo'lsa-da, o'sha yerga yetib olishni o'ylaydiganlar oz emas. Kechirasiz-ku, biror tilni bilmasdan turib chet davlatda katta maoshli ishga joylashishning imkoniyati yo'q. Hatto, oddiy yumushlar uchun ham muayyan bilim, mahalliy tilda gaplashish ko'nikmasi talab qilinadi. Afsuski, ko'pchilik "tarozining ikkinchi pallasi" haqida o'ylashni xayoliga ham keltirmaydi va turli xayoliy rejalar bilan o'zini ovuntiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarni "portlayotgan" ma'lumotlarga ko'ra, chet davlatlarda ishlayotgan migrantlar orasida firibgarlarga aldanish, pasportini yo'qotish yoki kimgadir oldirib qo'yish, ish joyida haq-huquqlarini yetarlicha talab qila olmaslik holatlari ko'p uchramoqda. Ochiq, bunday muammolarning deyarli hammasi ilmsizlik va til bilmaslik oqibatida yuz berayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Bugun yurtimizda ilgari surilayotgan uchinchi Renessans g'oyasi xalqimiz ruhiyatiga yaqin, donishmand ajdodlarimizning azaliy orzu-armonlari ifodasi hisoblanadi. Zotan, vaqtida jaded bobolarimiz tomonidan qadalgan ilm-ma'rifat nihollarini parvarishlab, hosildor daraxtlarga aylantirish bugun sizu bizning chekimizga tushgan muqaddas vazifa ekanligini doimo yodda tutishimiz shart. Yoshlarimiz bunday sharaflil maqsadga erishish yo'lida xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishning ahamiyatini chuqur his qilib, shunga intilib yashashi zarur.

Dildora DO'SMATOVA,  
O'zJOKU talabasi



Yozuvchi o'z xalqining tilini, folklorini kamol o'rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa yaqin qo'shin tillarini bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asari jonlanadi.

Abdulla QODIRIY

## TILBILIM

"Opoqi" deb Farg'onada bobo, Toshkentda yoshi katta ayolga nisbatan aytiladi. Shuningdek, shevalarda: opoyi, opog'oyi, opog'acha, opog'dada kabi shakllari ham bo'lib, ular: xola, amma, yanga, opa, buvi, bobo kabi ma'nolarga ega. Xo'sh, bu tizimdagi atamalar nerga ham erkak, ham ayol qarindoshlarga nisbatan ishlatiladi? Ularni umumlashtiruvchi "opoq(g)" qo'shimchasi nimani bildiradi?

"O'zbek tilining etimologik lug'ati"da "opog'oyil/opoyi/opoqi" so'zlariga umumiy qilib bir izoh keltirilgan, ya'ni bu atamalar: "apāq" sifati va "āyi" otidan tuzilgan birikmaning bir so'zga birlashuvidan yuzaga kelgan, - deyiladi lug'atda (O'TEL. I t. 255-bet). Ushbu iqtibosda keltirilgan "apāq" - hozirgi tilimizdagi "oppoq" bo'lib, Koshg'ariy bobomiz "Devonu lug'otit-turk"da bu so'zni: "āp" - ta'kid va kuchaytirish ko'makchisining "āq" ("oq") so'ziga qo'shilishidan yasalgan va "ap-aq" (oppoq) - "judayam oq" ma'nosini bildiradi, deb tushuntiradi (DLT.I t.1960.70).

To'g'ri, keksa kishilarga nisbatan "oqsoqol", "mo'y-safid", "huroniyy" deyimiz, ammo "judayam oq" ma'nosidagi "oppoq" so'zini yoshlar va ayollarga nisbatan ham qo'llanishi g'aliz tuyuladi. Qolaversa, "oppoq" o'timshda hech qachon izzat-hurmat ma'nosini tashmagan. Mayli, "opog'oyi", "opog' dada", "opog' acha" kabi so'z birikmalari "oppoq" ishtirokida yasalgan deb faraz qilaylik, ammo "opoqi"ni qanday tushuntirish mumkin?

Bizningcha, bu atamalarining rangini bildiruvchi "oppoq" so'ziga mutlaqo aloqasi yo'q va "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da ularga berilgan izoh to'g'ri emas. Bu atamalar, shuningdek hozirgi tilimizdagi "opa" so'zi ham, qadimgi turkiydegan bir o'zakka - "aba/apa" arxetipiga borib taqaladi.

"Devonu lug'otit-turk"da "aba" so'zi shunday izohlanadi: "aba - ona (o'yuzcha). Qariyu turkmanlari qattiq bilan apa deyidilar" (DLT.I t.1960.113). Shuningdek, "Devon"ning o'sha betida "aba"ning ikkinchi ma'nosi ham keltiriladi: "aba - ota (tubutlar tili-da). Bu arab tilining izi bo'lsa kerak. Chunki tubutlar

Yamandan qochib, turklar shahriga kelib, bola-chaqa qilib qolgan bir kishidan tarqaganlar. Ular Banu Sobitning avlodlaridir.

To'g'ri, arab tilida "ab" - "ota", uning ko'pligi esa - "aba" yoki "obo", ya'ni "otalar" ma'nosida, ammo turkiy "aba/apa" arxetipining islomdan oldin ham mavjud bo'lganligi va "ota", "bobo", "ajdod" ma'nolarini bildirganligi uning arabcha "obo" ga aloqasi yo'qligini bildiradi. Arabcha "obo"ni yozma adabiyotda ba'zan uchratish

o'xshab ketadi. Buning sababini shunday tushuntirish mumkin: odatda, go'daklar kattalardan so'z o'rganadi, ammo ota, ona kabi qon qarindoshlik atamalarining kelib chiqishi, mutaxassislariga ko'ra, aksincha, ya'ni aba, apa, appa, ava, ana, ama kabi so'zlar go'daklarga taqidan, go'dak tilidan olingandir, shu bois ular musharak tuyuladi.

"Этимологический словарь тюркских языков" (ESTYA) lug'atida turkiy "aba" dan "apa" ("appa")

an ishlatilgan. "Apa" so'zi qadimda ba'zi unvonlarga ham qo'shib aytilgan, xususan "apa tarqan" ("katta tarxon"), "apa tutuq" ("katta harbiy voli") kabi atamalarda "apa" qarindoshlikni emas, balki unvon darajasini bildirib kelgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "ana o'glani" so'z birikasiga ko'p duch kelamiz, bu ibora "odam bolasi", "bani odam" ma'nosiga ega: "ana o'glani kercse arqys sany", - ma'nosi: "odam bolasini ko'rsang, karvon sana (hisobla)". Ya'ni, ushbu o'rinda "apa" - "odam, eng qadimgi ajdod, Odam Ato" ma'nosida kelgan.

"Этимологический словарь тюркских языков" lug'atida yozilishicha, "apa/aba" arxetipi turkiy tillarda keyinchalik ikki yo'nalishda: ham erkak, ham ayol qarindoshlik atamalarini tizimi yo'nalishlarida rivojlangan. Mazkur arxetipdan o'sib chiqqan atamalar hozir ham ba'zi turkiy til va lahjalarda: ota, bobo, amaki, aka kabi ma'nolarni bildirsa, ba'zilarida: ona, opa, buvi, singil kabi ma'nolarda ishlatiladi.

Alqissa, hozirgi o'zbek tilidagi "opa" so'zi ham aynan shu o'zakdan. "Opoqi"ning "bobo" ma'nosi esa, "apa/aba" arxetipi "ota", "bobo" ma'nosida qo'llanadigan turkiy lahjalarda orqali tilimizga ko'chgan. "Yoshi katta ayol" ma'nosidagi "opoqi" esa mazkur so'zni muannas shaklida ko'lovchi shevalarda paydo bo'lgan. "Apa+q" shaklidagi "q" qo'shimchasi, ESTYAda yozilishicha, kichraytirish, erkalash ma'nosini tashiydi. "Devonu lug'otit-turk"da shu usulda yasalgan boshqa bir so'z - "ataqi"ga shunday izoh beriladi: "ataqi - otaginam, otajonim ma'nosida mehribonlikni bildiruvchi so'z" (DLT.I t.1960.155). "Bobo" ma'nosidagi "opoqi" ham aynan shu shaklda yasalgandir.

Abduvohid HAYIT



mumkin, xususan, Navoiy "Saddi Iskandariy"da: "Chu obog'a bu nav' berding sifot" ["O'talar (ya'ni, yetti qat osmon)ga shunday sifatlar berding"], - deb yozganda arabcha "otalar" ma'nosidagi "obo"ni qo'llagan.

Arabcha "ab", turkiy "aba" kabi so'zlarning ham shakli, ham ma'no jihatidan o'xshashligining boshqa sababi bor. Gap shundaki, ko'pgina tillarda ota, ona va boshqa qon qarindoshlik atamalarini bir-biriga

shakli qadimiyroq, degan fikr aytiladi. "Apa" qadimda "ota", "bobo", "ajdod" ma'nosida ishlatilgan. Xususan, VIII asr yodgorligi - Kultegin bitiktoshida "ye'cu apa" birikmasi - "ajdodlar" ma'nosiga ega. Shuningdek, mazkur lug'atda "aba/apa" arxetipi qadimgi turkiydegan "yoshi katta bo'lmoq" ma'nosidagi "ab-" fe'lidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin, degan fikr ham aytiladi. Ya'ni, "apa/aba" deb yoshi katta qarindoshga nisbat-

"Jadid" gazetasi jamoasi va muassislari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekovga padari buvrukvoti

Ahmad ota NAZARBEKOVning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir: Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o'rinbosari: Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir: Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi: Erkin Yodgorov Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi - 6291

Lotin yozuvidagi adadi - 11962

Media kuzatuvchilar - 12873

Buyurtma: G - 540.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2. Nashr ko'rsatkichi - 222. Tashkilotlar uchun - 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxon: (71) 203-24-20

Devonxon: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid\_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.

